

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA
KAFEDRASI**

Defektologiya yo'nalishi bo'yicha bakalavr malakaviy darajasini olish uchun
tayyorlangan

IXTIYOROVA GULNOZA BAXTIYOROVNANING

**MAXSUS MAKTAB O'QUVCHILARI
MAFKURAVIY ONGINI SHAKLLANTIRISHNING
O'ZIGA XOS TOMONLARI**

Mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ilmiy rahbar

G.Cho'liyeva

Rasmiy hakam:

Bitiruv malakaviy ish kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.

_____ sonli bayonnomasi "____" _____ 2013

Navoiy -2013

M U N D A R I J A

KIRISH	3
I–BOB. MUSTAQIL O`ZBEKISTONNING MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI VA UNI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISH	10
1.1. I.Karimovning milliy istiqlool mafkurasining maqsadi to`g`risidagi fikrlari.	10
1.2. G`oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta`siri	17
1.3. Milliy istiqlool mafkurasini yoshlarimiz ongiga singdirish yo`llari	31
II–BOB. MILLIY ISTIQLOL G`OYASI VA MAFKURASI – MAXSUS MAKTAB O`QUVCHILARI KAMOLOTI MEZONI.	
2.1. Milliy istiqlool g`oyasi va mafkurasi – maxsus maktab o`quvchilari kamoloti mezoni.	44
2.2. Maxsus maktab o`quvchilari mafkuraviy ongini shakllantirishning o`ziga xos tomonlari.	48
XULOSA	52
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI	54

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik tufayli o'z taqdirimizni o'z qo'limizga oldik, azaliy qadriyatlarga suyanib, rivojlangan davlat tajribasini hisobga olib, halqimizning orzu qilgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etmoqdamiz.

Bu haqiqatni xalqimiz anglab yetgani va taraqqiyot yo'limizni qo'llab quvvatlayotgani bosh maqsadimizga erishishning asosiy manbai hisoblanadi.

Xalqimiz hech kimdan kam bo'lmasligi, yoshlarimiz baxtli yashashlari uchun ma'naviyat tarbiyasi alohida ahamiyatga ega. Agar biz xushyorlikni yo'qotsak, bu ishni o'z holiga tashlab qo'ysak o'z ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolamiz.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida olib borilayotgan islohotlar yuksak darajada kadrlar tayyorlash, yuqori malakali, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlash hamda yirik ijtimoiy-pedagogik loyihalarni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan.

Milliy g'oya tamoyillari – yoshlarni tarbiyalab borish, ularning ma'naviyatini, tafakkurini shakllantirish asosidir. Milliy g'oya millatning ijtimoiy-ma'naviy, mafkuraviy jihatdan rivojlanib borishiga turtki bo'ladi.

Milliy g'oyaning uzviy tarkibiy qismlarini tashkil qiladigan komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillarning ma'no-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarining markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodimizni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalari qilib tarbiyalashdan iborat.

Ta'lim-tarbiya ong mahsuli, ong darajasi va uning rivojini belgilaydigan, ya'ni xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir.

Maktab ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi Konstitutsiyaning 41-moddasida belgilab qo'yilgan. Ertangi kunimiz qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. YOshlarning mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasidir.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi-bu sharqona qarash, sharqona hayot fasafasi. Bu haqda fikr yuritganda A.Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yofalokat masalasidir" degan so'zlarini eslash darkor va bu dolzarbligini hozir ham yo'qotgani yo'q.

Tarixdan ma'lumki, o'zining milliy davlatini qurmoqchi bo'lgan xalq o'zining yagona maqsad va orzu-intilishlari ifodasi bo'lgan milliy g'oyaga suyanadi.

Milliy g'oya har bir insonning qalbidan chuqur joy olib, uning ma'naviy ehtiyojiga aylangan, millatning ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini ifoda qiladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq milliy g'oyamizning asosiy tushuncha va tamoyillarini belgilab olidk. Mustaqillikni asrash, mutahkamlash milliy g'oyamizning ma'no-mazmunini belgilaydi.

Milliy g'oya odamlarning olijanob niyatlarini, hayotiy manfaatlarini mujassam etadigan yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi kabi yuksak tushunchalarni o'z ichiga oladi.

Barqaror taraqqiyot va farovon hayotga erishishning asosiy garovi-bu tinchlik va osoyishtalikdir. Fotihaga qo'l ochganda barchamiz YAratgandan

tinchlik va osoyishtalikni so'raymiz. Insonlarning muqaddas huquqlaridan biri-bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdan iborat.

Milliy g'oyamizning asosiy tamoyillaridan biri Vatan ravnaqidir. Vatan ravnaqi uning farzandlarining ma'naviy va jismoniy kamolotiga bog'liq. Har qaysi fuqaro o'z mamlakatining taraqqiy topgan va badavlat bo'lib yashashidan manfaatdor bo'ladi. SHuning uchun Vatan ravnaqi va xalq farovonligi masalasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

YOshlar ma'naviyatida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, eng avvalo, ular ongiga bir xil g'oyani zo'r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oqni qoradan, yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, do'stni dushmanidan, ajratishni farqlay olishni, zararli buzg'unchi va axloqsizlikka asoslangan g'oyalarga qarshi xushyor va oqox bo'lishga o'rgatmog'imiz lozim.

O'zbekiston yoshlar mamlakatidir. SHu jihatdan olib qaraganda davlatimiz kelajagi, millat taraqqiyotti bugungi yoshlarning bilimiga, onglilik darajasiga, saviyasiga, dunyoqarashiga, vatanparvarlik tuyg'usining qanchalik darajada shakllanishiga, komillik darajasiga bog'liq. Kelajagimiz erkin fikrlaydigan, mustaqil ish yurita oladigan, chet tillaridan yaxshi xabardor, yuqori texnologik tafakkurga ega bo'lgan, Vatan va xalq manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'ya oladigan, kerak bo'lsa, Vatan uchun jonini fido qila oladigan yoshlarni talab etadi.

Milliy o'zlikni anglashni butun olam insonparvarlik g'oya va madaniyatni, umuminsoniy qadriyatlar, ko'p millatli xalqimiz an'analaridan ayri holda tiklab bo'lmaydi.

Prezidentimiz Islom Karimov takidlaganidek, "Mahalla", "Kamolot", "Sog'lom avlod uchun", "Nuroni", "Ulug'bek", "Iste'dod" jamg'armalarining ta'lim-tarbiya sohasidagi ezgu ishlarini o'sib kelayotgan

avlodni jismonan sog'lom va ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashga qo'shayotgan xissalarini alohida aytib o'tmoq joiz (3.12.) .

Har qanday jamiyatning kelajagi, uning rivojlanishi va farovonligi yoshlarga bog'liqdir.

YOshlarning iqtidori va bilimga chanqoqligi ma'naviyatga erishishda va rivojlanishdan boshlanadi.

Albatta, ularga yondashuv an'anaviy tarbiya uslubi hisoblangan ommaviy tadbirlar, masalan, sayohatlar, madaniyat yodgorliklari, muzeylar, teatrlar, ko'rgazmalar, mashxur allomalar bilan uchrashuvlar o'tkazish maqsadlaridan muayyan va aniq maqsadlarni shakllantirishga rivojlantiruvchi maqsadlarga yoshlarda ma'naviy, ma'rifiy, huquqiy, umuminsoniy, qadriyatlarga bo'lgan sadoqatini rivojlantiradi.

Eng yuksak milliy qadriyatlar va sifatlarni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlarni inobatga olgan holda O'zbekiston Respublikasi fuqarosining milliy o'z-o'zini anglashni rivojlantirish, kasb egallashga, shaxsiy mas'uliyatini yuqori malakali bo'lishiga va kasbiy mahoratga intilishni, tarbiyalash, mehnat faoliyatiga va doimiy ravishda malakani o'stirib borishga undovchi sifatlarni tarbiyalash, oilaviy xayotga tayyorlash, ota-ona va qondosh-qarindoshlar, oila oldida mas'uliyat va javobgarlik hissini tarbiyalash kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Mafkura tushunchasi: Jamiyat mafkurasiz bo'lmaydi. Chunki har bir davlat mustaqil taraqqiyot va rivojlanish yo'lini tanlab olar ekan, o'z taraqqiyot dasturi, qarashi, amalga oshirish tamoyillari, konsepsiyasiga ega bo'lmasdan o'z istiqbolini aniq ko'ra olmaydi.

Har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va

qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham g'oyalarda ifoda etiladi.

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasining asosini tashkil etadi.

Mafkura (arab. - fikrlar majmui, nuqai nazarlar, e'tiqodlar tizimi) – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat, jamiyat yoki davlatning manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir. Unda manfaatlari ifodalanayotgan kuch va qatlamlarning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli o'z ifodasini topadi.

Mafkura (arab. «mafkura» – fikrlar, nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) – jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui.

Mafkura keng ma'noda: ijtimoiy borliqning jamiyat hayotining ma'naviy-siyosiy in'ikosidir, uning inson ongida aks etishi, inson tomonidan anglanib, butun tizim holiga keltirilishi va bu tizimning Amaliy faoliyatda nazariy asos hamda ruhiy tayanch bo'lib xizmat qilishidir.

Milliy istiqol mafkurasi – bu istiqloлга erishilgandan keyin shakllangan va taraqqiy etayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotini va olib borilayotgan ham ichki ham tashqi siyosatni himoya qilib qo'llab-quvvatlaydigan qarashlar, nazariyalar majmuidir.

Turli ijtimoiy tuzumlar, jamiyatdagi har xil tabaqa va qatlam-larning mafkurasi turlicha bo'lishi tabiiy. Buning asosida manfaatlarning turlichaligi, ularni qondirish imkoniyatlari va uslublarining har xilligi yotadi. Sinfy qutblashuv kuchaygan, sinfiy kurash avj olgan (yoki sun'iy ravishda

keskinlashtirilgan) tuzumlarda mafkura o'ta siyosiylashadi, aholini o'zaro qarama-qarshi qilib qo'yadi.

Ijtimoiy hamkorlikka asoslangan, erkin demokratik jamiyat barpo etishni ko'zlagan davlatlarda milliy mafkura aholining barcha qatlamlarini jipslashtirishga, umummanfaat va yagona maqsad yo'lida birlashishga chorlaydi. Bunday mafkuralarda ziddiyatli jihatlar emas, umuminsoniy tamoyillar kuchayib boradi.

O'zbekiston xalqining milliy istiqlol mafkurasi aynan jamiyatni jipslashtirishga, buyuk kelajak yo'lida yakdil harakat qilishga, barpo etilayotgan erkin fuqarolik jamiyatida har bir yurtdoshimizning o'ziga xos o'рни bo'lishiga erishishga safarbar etadi.

Bu o'rinda jamiyatning a'zolari bo'lmish maxsus maktab o'quvchilarining zaif nuqtasi – ruhiy barqaror emasligi natijasida tashqi ta'sirlarga tez beriluvchanligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz, ularda mafkuraviy immunitetni hosil qilishimiz hozirgi kunning dolzarb vazifalaridandir.

Tadqiqotni maqsadi: maxsus maktab o'quvchilari mafkuraviy ongini shakllantirishning o'ziga xos tomonlari o'rganish

Tadqiqot vazifalari:

- Mavzuga oid pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni o'rganishva tahlil qilish.
- Mavzuga oid jarayonni kuzatish va tahlil etish.
- Maxsus mehnat ta'limi maktab o'quvchilarini mafkuraviy ongini shakllantirishning o'ziga xosligini o'rganish

Tadqiqot obyekti: maxsus maktab o'quvchilari mafkuraviy ongini shakllantirishning o'ziga xos yo'llari, shakllari

Tadqiqot predmeti: maxsus maktab o'quvchilari mafkuraviy ongini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Maxsus mehnat ta'limi maktab o'quvchilarini mafkuraviy ongini shakllantirish ma'lum maqsadga muvaffaqiyatli yo'naltirilsa; aqli zaif bolalarga individual yondashib, ularni mafkuraviy tarbiyalash ta'lim tarbiya maqsadlariga yo'naltirilgan holda boyitib borilsa; maxsus mehnat ta'limi o'quvchilarining yoshi, psixik xususiyatlari, oilaviy sharoitlarining o'ziga xos tomonlarini hisobga olgan holda mafkuraviy ongini shakllantirishda maxsus usullardan foydalanish ularni hayotga yuqori darajada moslashtirishni ta'minlaydi.

Tadqiqotni metodologik asosi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, „Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, “Bola huquqlari kafolatlari to'g'risida”gi Qonuni, „Maxsus ta'lim konsepsiyasi”, „Bola huquqlari to'g'risida”gi konvensiya, prezident I.A.Karimovning milliy iqtisodiy g'oyasi va mafkurasi haqidagi fikrlari, Sharq mutafakkirlarining bola tarbiyasi to'g'risidagi pedagogik qarashlari, shuningdek, umumiy va maxsus pedagog olimlarning asarlari.

Tadqiqot metodlari: mavzuga oid pedagogik, psixologik, metodik adabiyotlarni o'rganish tahlil etish, aqli zaif bolalarni mafkuraviy ongini shakllantirish ahamiyatini eksperimental o'rganish, defektolog, tarbiyachi, otalar bilan suhbat o'tkazish.

Bituruv malakaviy ish kirish, 2 bob, 5 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I-BOB. MUSTAQIL O'ZBEKISTONNING MILLIY ISTIQLOL MAFKURASI VA UNI YOSHLARGA SINGDIRISH

1.1.I.Karimovning milliy istiqlol mafkurasining maqsadi to'g'risidagi fikrlari.

Keling, bir lahza atrofga teranroq nazar tashlaylik. Ko'p sinovlar, azob-uqubatlar, xatolar, fojialar, urushlar, qatag'onlarni boshidan kechirgan asrimiz poyoniga yetayotgan, insoniyat yangi asr busag'asida turgan bugungi kunda turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi xar qachongidan ham shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy diniy oqimlar mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bulmoqda. Boshqcha aytganda, hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barxam topgan bo'lsada, turli xil maqsad-manfaatlarini ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvi to'xtagani yo'q. SHuni aniq aytish kerakki, bu tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad – inson, avvalambor yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni uz dunyoqarashiga buysundirish. Masalan: bizning yurtimizga din niqobi ostida kirib kelishga urinayotgan vahhobiylik oqimi namoyandalarining zararli kirdikorlarini olaylik. Ular 16 fevral kuni o'z basharalarini namoyon `ildilar. 16-fevral vo'ealaridan keyin shu narsa ayon bo'ldiki, xalq o'z Prezidentiga va mustaqillik mafkurasiga sodiq ekan, xalq uchun eng ulug ne'mat mustaqillik va mamlakat tinchligi, osoyishtaligi ekan.

Bundan ko'rinib turbdiki, tabiatda ham, jamiyatda ham vakuum – bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lganidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'; qo'yib bo'lmaydi. Agar mafkura sohasida vakuum bo'shliq bo'lsa, holimizga voy.

Binobarin, «Oldimizda turgan eng muhim masala, - dedi Prezidentimiz, bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizda tadbiqetishdir. Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning azaliy an'analariga. Udumlariga, tiliga, diniga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mexr-oqibat, insof sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirish lozim».

Mafkura – o'tmish va kelajak o'rtasidagi ko'prikdir.

Xar qanday millat mustaqillik mafkurasini yaratar va unga asoslanib turmush tarzini barqaror etar ekan, milliy g'urur hamda vatanparvarlikni yuksaltirish bilan barobar umumbashariy qadriyatlarga sodiq qolishi darkor. Xalqlar do'stligi va xamjamiyatligiga sodi'lik ota-bobolarimizdan bizga meros bo'lib kelayotgan ma'naviy qadriyatlarimizdan biridir.

Tarixga bir nazar solganim uchun,

O'tmishdan beray ozgina saboq:

O'tmish bilan bog'liqdir hodisot butun,

Daxshatli, suronli bo'lsa ham biroq.

Darxaqiqat, ushbu satrlar judayam diqqatga sazovordir. O'tmishini, tarixini bilmasdan, o'rganmasdan turib, o'zlikni anglash qiyin. Yurtboshimiz aytganidek, «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q», «Chunki, inson o'zligini anglash uchun, tarix saxifalariga nazar solmoq kerak. Xar qaysi inson men shu millat farzandi ekanman, mening ajdodlarim kimlar bo'lgan millatimning ibtidosi qayda, uning oyoqqa turishi, tiklanishi, shakllanish jarayoni qanday kechgan, degan savollarni berishi tabiiy. Tarixiy ildizini izlagan odam, albatta irodali insondir. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o'rgatadi, irdasini mustaxkamlaydi. O'zbek xalqi 1991 yilgacha doim zulm, zug'm ostida yashadi, ularning uzligi, tafakkuri, ma'naviyati, madaniyati, qo'yingki, ongi xam judayam ayovsiz toptaldi, zaharlantirildi. Masalan, chor Rossiyasini olaylik. Avvalambor, davlatni o'ziga qaram qilish niyatida harakat qilgan siyosiy kuch faqat bir siyosatni yuritgan; ya'ni qaram xalqning

ma'naviy, madaniy, tarixiy merosini yo`q qilish, undan judo etish. Demak, usha bosqinchilik davrida xam o`zbek xalqining mafkurasi oyoq ostida qolib ketgan. O`zbeklarning mafkurasini, goyasini bir otilib chiqqan buloqqa uxshatish mumkin. Mafkurani yaratib bo`lmaydi, balki mafkura uzi tug`iladi, shakllantiriladi va asosiy tamoyillarini ishlab chiqish mumkin. Ammo bu tamoyillar real hayotda o`z urnini topmasa, bunday mafkura faqat qog`ozda bo`ladi, xolos. SHuning uchun xam mening fikrimcha, mafkurani shakllantirish jarayonida, avvalambor, mamlakatning bugungi hayoti, o`tmishi, kelajagi, butun taqdiri uchun qayg`uradigan, Vatan qismatini o`z qismati deb biladigan keng jamoatchilikning ilg`or dunyoqarash va tafakkuriga asoslanish lozim.

Ana shu otilib chiqqan mafkura, mustaqillik yillaridan keyin paydo bula boshladi. Biz bu mafkurani milliy istiqlol mafkurasi deb atasak mubolag`a bo`lmaydi. Bu mafkura o`z nomidan ko`rinib turibdiki. Milliylik, mustaqillik g`oyalari bilan sug`orilgan.

Mana shu mafkura, o`tmish bilan kelajakni bog`lovchi ma'naviy ko`prikdir. Mana shu ko`prik qanchalik adolatli bo`lsa, u hech qachon sinmaydi. Jamiyat rivojlanib, xalq o`zligini anglaydi, qolaversa o`zbek xalqiga yot bo`lgan ma'naviy meroslarimizni ko`zqorachig`iday asrasa. O`z ona tilini ximoya qilsagina jamiyat o`z o`rnini topadi. Bunday natijalar faqat insonning o`z mafkurasi, g`oyasiga bog`lik mafkura, g`oya erkin bo`lsagina, demokratik davlat qurish mumkin.

O`zbekiston butunlay yangicha yo`l yangicha tafakkur va mafkura bilan taraqqiy qilar ekan, bu taraqqiyotning nazariy-metodologik asoslarini qarashlar Prezidentimiz asarlari, ma`ruza va suhbatlarida uz ifodasini topgan. Xayotning murakkabligi shundaki, barchani baravar ko`rib bo`lmas, barchaga baravar qadam tashlamas ekan. Ana shunday murakkab ijtimoiy taraqqiyot yo`lida asosiy va bosh mezon, talab va ehtiyoj ham bor. Bu – inson qalbi,

ongi, tafakkurining o'zgarish tezligidir. Ongni, tafakkurni o'zgartirmay turib muhitni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Yangicha tafakkur – zamon talabi. Bu degani yangicha tafakkurning paydo bo'lishi bilan birga talablar xam zamonaviy bo'lishi kerak. Ya'ni Prezidentimiz ishni xalq ta'limi tizimini butunlay qayta isloh qilish goyasini o'rta tashlaydilar va uni shakllantiradilar. Prezidentimiz ta'kidlab aytganidek, «Kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, say'-harakatlarimiz kutilgan natijalarni berishi, hayotimiz, ma'naviyatimiz uzgarishi qiyin kechadi. Demakki, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilish, zamon talablariga mos kadrlar tayyorlash ishini yo'lga qo'yish faoliyatimizning bosh yo'nalishi bulmog'i darkor.

Chunki, bizning xalqimiz talant va iqtidor jihatidan xech kimdan kam emas. Unga ma'rifatning ravon yo'llari ochib berilsa, jahonda o'ziga yarasha obro'li urinni egallay oladi».

Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini isloh qilishda avvalo tarbiya beruvchilarni tarbiyalash vazifasi yotadi. Agar tarbiyachilarning bilim saviyasi zamon talablariga mos kelmasa, eski zamon dasturlari asosida dars bersa, islohatlar mohiyatini teran anglab yetmagan, yangi tafakkurga ega bo'lmagan bo'lsa, qanday qilib ular zamonaviy yoshlarning ma'naviy barkamol o'sishlariga ma'sul bo'ladilar?

Eskicha ta'lim-tarbiya tizimining eng katta nuqtasi ya'ni nuqsoni shu ediki, unda yoshlar ongiga quruk xabar berishdan nariga o'tilmas, yoshlarning mustaqil tafakkur yuritishga e'tibor berilmas edi. Maktabni bitirgan yoshlar o'z mustaqil fikri va havasi yo'lidan emas, ota-onasi hamda tanish-bilishlarining tavsiyasi, ko'magi va ko'rsatmasi bo'yicha kasb-hunar tanlar edilar. «Mustaqil fikrga ega bulmagan odam esa xar qanday olomonga ergashib ketaveradi. Masalaning eng muhim jihati aynan mana shundadir», – dedi yurtboshimiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yangi mafkura erkin fikrlaydigan. Mute'lik va jur'atsizlik tuyg'usidan xoli. Mustaqil insonni tarbiyalashni ko'zda tutar ekan, bu inson. O'z navbatida, mu'tabar ona zaminda kamol topganligini his qilishi hamda uni katta umidlar bilan voyaga yetkazgan millat va jamiyat oldidagi muqaddas burchini bilishi kerak. Ana shunda xar kim «Shu davlat, shu jamiyat menga nima berdi?» va «Men o'zim Vatanga, yurtimga nima berdim?» degan savollarga javob topa biladi.

Yangi mafkuraning mohiyati ana shunda!

Mafkura – muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat va davlatning extiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir.

Milliy mafkura xalqning maqsad-mudaolarini ifodalaydigan, tarix sinovlaridan o'tishda uning ruhini ko'tarib, suyanch va tayanch bo'ladi, shu millat, shu jamiyat duch keladigan ko'plab hayotiy va ma'naviy muammolarga javob izlaydi. U insonga faqat moddiy boyliklar va ne'matlar uchun emas, avvalo, Alloh taolo ato etgan aks-zakovat, iymon-e'tiqod tufayli yuksak ma'naviyatga erishish uchun intilib yashash lozimligini anglatadigan, bu murakkab va tahlikali dunyoda uning taraqqiyot yo'lini yoritadigan mayoqdir.

Milliy g'oya va istiqlol mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, serqirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-hanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab yetishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat etadigan, uning sha'nu-sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga

tayangan xolda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir.

Xalqni buyuk kelajak va ulug`vor maqsadlar sari birlashtirish, mamlakatimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat'iy nazar, xar bir fuqaroning yagona Vatan baxt-saodati uchun doimo ma'suliyat sezib yashashiga chorlash ajdodlarimizning bebaho merosi, milliy qadriyat va an'analarimizga munosib bo'lishiga erishish, yuksak fazilatli va komil insonlarni tarbiyalash, ularni yaratuvchanlik ishlariga da'vat qilish, shu muqaddas zamin uchun fidoyilikni hayot mezoniga aylantirish – milliy istiqlol mafkurasining bosh maqsadidir.

«Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urf-odatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar.

I.A.Karimovning “Milliy mafkura – davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy kuch-quvvat manbai” nutqining ahamiyati.

I.A.Karimov bu nutqini Milliy istiqlol mafkurasi konsepsiya-sining asosiy tamoyillariga bag'ishlab ilmiy va ijodiy jamoatchilik vakillari bilan 2000 yil 6 apreldagi uchrushuvda so'zladi. Nutq jamiyatimiz hayotidagi eng muhim masalalardan biri milliy mafkura xususida bo'ldi. Bugungi kunda nafaqat iqtisodiy hayotimizda, balki, ongu tafakkurimizda ham yangilanish o'zgarish jarayoni kechmoqda. Pirovard maqsadimiz bo'lgan ozod va obod, erkin va farovon hayot qurishdagi intilishlarimizda biz uchun ruhiy-ma'naviy kuch-quvvat manbai, ilmiy asos – bu milliy g'oya, milliy mafkuradir. Fikr bor joyda baxs bo'ladi, baxs bor joyda haqiqat yuzaga keladi. Milliy g'oya, milliy mafkura ma'no-mohiyati, biz uchun juda zarur va kerakligini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

1. O'z kelajagini qurmoqchi bo'lgan har qanday davlat o'z milliy g'oyasiga suyanishi va tayanishi zarur. Davlat tizimi, uni boshqarishdagi siyosat aniq mafkura asosiga qurilmog'i lozim. Oldin g'oya paydo bo'ladi. Odamlarimizni olijanob maqsad atrofida birlashtirishimiz zarur. Ongni, tafakkurni o'zgartirmisdan turib, biz ko'zlagan oliy maqsadga erishib bo'lmaydi.

2. Biz totalitar tuzumdan erkin va ozod tuzumga o'tish sharoitida yashamoqdamiz. SHu davrda maqsadimiz aniq bo'lishi kerak. Maqsadga puxta ishlangan mafkura asosida yetishish mumkin.

3. YOshlarimizni qanday g'oya negizida tarbiyalaymiz, qanday mafkura va tafakkur ular uchun qurol bo'lib xizmat qiladi?

4. Hech qanday g'oyaviy bo'shliqqa yo'l qo'ymasligimiz kerak. Eng ta'sirchan kurash avvalo, mafkura maydonlarida olib borilmoqda. Lekin hali suyagi qotmagan yoshlarimiz soxta g'oyalar orqasidan ergashib ketmoqda.

5. Milliy g'oya millatning o'zligini anglashga, qadriyatlarni tiklashga xizmat qilmog'i kerak

6. Milliy mafkuramiz: a) milliy qadriyatlarga va b) umuminsoniy qadriyatlarga tayanishi zarur.

7. Milliy mafkura hech qanday shaklda davlat mafkurasi maqomiga ko'tarilmasligi kerak.

“G`oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, olishish mumkin.” Ozod bo'lsang ozod bo'l, erkin bo'lsang erkin bo'l, mustaqil bo'lsang mustaqil bo'l. O'zbek millati oqko'ngil millat. Milliy mafkura o'zlikni anglashga xizmat qiladi. O'zlikni anglash o'z tarixini bilishdir. Tarixini bilish nasl-nasabini anglashdir. Milliy g'oya birlashtiruvchi kuch, qanot bo'lishi shart.

1.2.G'oya va mafkuralarning inson va jamiyat hayotiga ta'siri

G'oya tushunchasi (yunon. g'oya, ta'limot). Ilmiy adabiyotlarda «g'oya», «**mafkura**», «**ideya**» va «**ideologiya**» tushunchalari ishlatilmoqda. «Ideya» va «ideologiya» ko'proq g'arb davlatlarida hamda rus tilidagi manbalarda uchraydi. Ideya iborasi yunon tilidagi «idea» so'zidan olingan. U ideologiya so'zining o'zagi bo'lib hisoblanadi va tushuncha yoxud fikr ma'nosini anglatadi. **Ideologiya** (Idea - g'oya, tuguncha, logos - ta'limot) atamasi esa g'oyalar to'g'risidagi ta'limotni anglatadi va ikki xil ma'noda ishlatiladi:

Ezgu g'oya - inson tafakkurida vujudga keladigan, muayyan fikrlarning ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni bunyodkor maqsad-muddao sari yetaklaydigan ulug'vor fikrlardir.

G'oya moddiylashtiruvchi, amaliyotga aylantiruvchi kuch ekanligiga qarab: sinfiy g'oya, milliy g'oya, umumxalq g'oyasi, umuminsoniy g'oyalar ham mavjud.

Mafkura - arabchadagi «mufakkir», «mufakkira tun» so'zlaridan olingan bo'lib, chuqur ma'noli, teran mazmunli fikr demakdir.

Mafkura - muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat yoki davlatning, jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy rivojlanish prinsiplarini ifoda etadigan g'oyalar, ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimidir¹.

Mafkurada manfaatlari ifodalangan ijtimoiy kuchlar va qatlamlar-ning o'tmishi, bugungi kuni va istiqboli aks etadi.

Mafkura va g'oyalar tarixiy taraqqiyotda yetakchi mavqelardan birini egallaydi. Insoniyatning ko'p ming yillik o'tmishi buni yaqqol tasdiqlaydi. yer yuzida dastlabki odamzod paydo bo'lib, uning urug', jamoa yoki xalq sifatida shakllanishi ro'y bergan dastlabki davrlardayoq ularni birlashtirib

¹ Эргашев И. ва бошқ. Миллий истиқлол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. -Т.: Академия, 2005. 35-бет.

turadigan umumiy g'oya va mafkuraga ehtiyoj tug'ildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «CHunki, mafkura - jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi»¹.

Jamiyat tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk moddiy va ma'naviy madaniyat maskanlarining ko'pchiligi dastlab SHarqda shakllangan va bu insoniyatning keyingi taraqqiyoti uchun zamin bo'lib xizmat qilgan. Xususan, qadimgi Misr, Vavilon, Turon, Eron, Hindiston va Xitoyda vujudga kelgan sivilizatsiyalar tarixda muhim o'rin tutadi. Qadimgi SHarq zamini xalqlari dunyoda birinchilardan bo'lib yerga ishlov berdilar, tabiatdan tanlab olish yo'li bilan madaniy o'simliklarning ko'plab navlarini yetishtirdilar. Ular murakkab sug'orish inshootlari va moslamalarini yaratdilar, tarixga ma'lum bo'lgan birinchi suv tegirmonlari va objuvozlarni qurdilar, dastlabki uy hayvonlarini qo'lga o'rgatdilar, ipak qurti boqib, undan tabiiy ipak olishni kashf etdilar. Nihoyatda murakkab me'morchilik san'atiga asos soldilar, tabiat kuchlari qarshisida qanchalik sabr-toqatli, irodali, o'tkir fikrli, jismonan baquvvat va ruhan yengilmas bo'lishni jahonga namoyon etdilar. SHu asnoda xilma-xil g'oyalarni yaratdilar, ularni amalga oshirdilar.

Mafkuraviy jarayonlar tarixiy va ijtimoiy shart-sharoit bilan uzviy aloqador bo'lib, davrlar almashuvi bilan yangilik tomon o'zgaradi.

Ma'lumki, milliy g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari xalqimizning ko'p ming yillik o'tmishi davrida rivojlanib keldi. Qadimgi Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada ilk bor shakllangan, ajdodlarimiz tomonidan bundan 2700 yil oldin yaratilgan dastlabki yozma manba - «Avesto» kitobida ham ezgulik g'oyalari ilgari surilgan. (2001 yili YUNESKO hamkorligida 2700 yilligi keng nishonlandi). YAxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Zardo'shtiylikning ezgulik

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт - пировард мақсадимиз. Т.8. -Т.: «Ўзбекистон», 2000. 490-бет.

va insonparvarlik haqidagi qarashlari mintaqamizga islom dini kirib kelgunga qadar asosiy g'oyalari edi². SHuningdek, turkiy xalqlar o'rtasidagi Ko'k tangrisiga (osmon va quyoshga) sig'inish (shamanizm) va buddizm (buddaviylik) ham diniy e'tiqod sifatida zardushtiylik bilan yonma-yon yashab keldi.

Zardushtiylik mintaqada ilk bor shakllangan dastlabki davlat birlashmalari: Xorazm, Sug'diyona va Baqtriyada davlat dini darajasiga ko'tarildi va rasmiy mafkura vazifasini ham bajardi. Kushon davriga kelib zardushtiylik bilan bir qatorda, buddaviylik ham davlat dini vazifasini o'tay boshladi.

Ammo, Turonning vaqti-vaqti bilan bosqinchilar hujumiga uchrab turishi jamiyatdagi barqarorlikni izdan chiqarar edi. Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Ahmoniy shohlari, 329-327 yillarda Aleksandr Makedonskiyning bosqinchilik yurishlari mintaqada mavjud bo'lgan mustaqil davlatchilikka ma'lum muddatga chek qo'yilishiga sabab bo'ldi. Xalqimiz o'z mustaqilligini qayta tiklash uchun dushmanga qarshi yillar davomida kurash olib bordi. Mustaqillik g'oyalari, o'z milliy davlatchiligini tiklash uchun kurash xalqimizning o'sha paytdagi orzu-umidlari, ta'bir joiz bo'lsa, uning g'oya va mafkurasini tashkil qildi. Ularga asoslangan xalqimiz Kushon podsholigi va Buyuk Turk Xoqonligi kabi ulkan saltanatlarga asos soldilar.

Biroq, tarixiy jarayon o'zgarishi bilan mintaqada mustaqil davlatchilikka yana vaqtincha chek qo'yishga to'g'ri keldi. VII asrning oxiri - VIII asrning boshlarida arab bosqinchilari Turonni bosib oldilar. Bunda istilo va istibdodga qarshi kurash g'oyalari yagona maqsad yo'lida, masalan, Turon zaminini arab istilochilaridan ozod qilish uchun janglarda birlashtiruvchi g'oya bo'ldi. Muqanna qo'zg'oloni va uning ozodlik uchun kurash g'oyalari istiqloqlolchilariga qarshi kurashda mafkura vazifasini bajardi.

² Тохир Карим. Муқаддас «Авесто» изидан. -Т.: «Чўлпон», 2000. 176-бет.

Movarounnahrda islom dinining tarqalishi xalqning yagona maslakka birlashtirishdek tarixiy vazifani bajardi. IX-XII asrlarda somoniylar, qoraxoniylar, g'aznaviylar, saljuqiylar, xorazmshohlar sulolari tomonidan mintaqada asos solingan davlatlar nafaqat o'zbek xalqi, balki jahon xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarning o'lmas asarlari jahon fanini boyitdi. Mutasavvuflar: Xoja YUusuf Famadoniy, Ahmad YAssaviy, Abdulxoliq Fijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro; muhaddislar: Imom Buxoriy, Imom Termiziylarning ta'limotida aks etgan **komil inson g'oyalari**, adolat haqidagi qarashlar jamiyatning sog'lom ma'naviy-axloqiy ruhini saqlash va mustahkamlashga xizmat qildi. Bu g'oyalar Vatan va xalq manfaati yo'lida fidoyilik va insonparvarlikni ulug'ladi. Ular milliy-ma'naviy qadriyatlar sifatida xalqimiz madaniyati, adabiyoti va san'atida, jumladan, Mahmud Qoshg'ariy, YUusuf Xos Hojib, Ahmad YUgnakiy, Lutfiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Jaloliddin Rumiy, Mirzo Abdulqodir Bedillar ijodida chuqur o'rin egalladi.

Bu g'oyalar o'zbek davlatchiligining rivojlanishida ham muhim omil bo'lib xizmat qildi. Amir Temurning «Temur tuzuklari», Nizom-ul-mulkning «Siyosatnoma» kitoblarida davlat idorasi va ahli fuqaroga munosabatda adolat, insof, diyonat, el-yurt tinchligi va obodligi bosh g'oya sifatida ilgari surildi. Bu g'oyalar Temuriylar davlati g'oyaviy tamoyillarining ustuvor yo'nalishi edi.

XVII-XIX asrlarda umummilliy manfaatlar o'rniga tor va cheklangan, shaxsiy va sulolaviy manfaatlarning ustun qo'yilishi, jamiyat hayotida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash va ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmagani o'zbek davlatchiligining tanazzulga yuz tutishiga, mustaqillikning qo'ldan berilishiga, Turkistonda

mustamlakachilik tuzumi o'rnatilib, pirovardida milliy davlatchilikning yana bir bor tugatilishiga olib keldi. SHunga qaramasdan, chuqur tarixiy ildizlarga ega bo'lgan milliy g'oyalar tamomila yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha, mustamlakachilik sharoitida ular milliy davlatchilikni tiklash, millat taraqqiyoti va istiqboli uchun kurash bayrog'i sifatida yana ilgari surildi.

Bu intilishlar XIX asrda **ma'rifatparvarlik g'oyalari** bilan chiqqan Ahmad Donishning ilg'or qarashlarida, XX asr boshida yuzaga kelgan jadidchilik harakatining taraqqiyparvar namoyondalari - Behbudiy, Fitrat, CHO'lpon, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy ijodi va faoliyatida yana ham kuchaydi. Jadidlar Turkistondagi xalqlarni birlashtirish va butun o'lkaning milliy mustaqilligi uchun kurash g'oyasini ilgari surdilar. Turkistonda bosqinchi qizil armiya va sovet tuzumiga qarshi ko'tarilgan istiqloлчаilik harakatining mafkurachilari ham aynan jadidlar bo'ldilar. Biroq, mustabid sovet tuzumi bu g'oyalarga qarshi g'ayriinsoniy mafkurani ilgari surib, xalq manfaatlarini inkor etdi. Bu utopik, hayoliy g'oyalar real hayot talablariga javob bermas, xalqning an'anaviy turmush tarziga, jamiyat taraqqiyoti qonunlariga mutlaqo zid edi. Ular milliy istiqloolni tan olmas, milliy qadriyatlarni toptar, diniy e'tiqodga qarshi kurash asosiga qurilgan edi. Lekin, mustabid hukumat ularni xalqqa tan oldirish uchun jon-jahd bilan kurashdi. Bu siyosat ayovsiz kurashlar, ta'qib, tazyiq va zo'ravonliklardan iborat edi. O'sha yillardagi mash'um qatag'onlar bu kurashning fojeali namoyon bo'lishi edi.

Bu tuzum o'lkamizda zo'rlik bilan o'rnatilgach, xalqimiz uning siyosati va mafkurasiga qarshi kurash olib bordi. Bu kurash shafqatsizlik bilan bostirilgach esa, yashirin tarzda davom etdi. Va nihoyat, 1937 yildagi ommaviy qatag'on bu tuzum va uning mafkurasiga, g'oyalariga qarshi chiqqan, umummilliy manfaatlarini himoya qilgan har qanday «o'zgacha fikrleydigan» kishini «xalq dushmani» deb e'lon qildi. Ular ba'zi milliy

g'oyalarni ilgari surib, xalqimiz manfaatlarini himoya qilganliklari uchun ularni yo'q qilib yubordi.

SHundan keyingina, zo'ravonlik bilan o'rnatilgan bu g'oyalar jamiyatning yakka-yu yagona va hukmron mafkurasiga aylandi. Butun ommaviy axborot vositalari - radio, matbuot, televideniye, madaniyat, san'at, adabiyot, ijtimoiy fanlar shu mafkurani targ'ib qilish va singdirishga xizmat qildi, davlat tashkilotlari uning hukmronligini kuch va zo'rlik bilan ta'minlab turdilar. Lekin bu g'oyalar baribir xalq qalbidan chuqur joy ololmadi, jamiyatning o'z mafkurasiga aylanmadi, xalqimizning milliy g'oya va asriy qadriyatlarini yo'q qila olmadi. Xalqimiz hayotida chuqur ildiz otgan, uning azaliy orzusi bo'lgan milliy g'oyalar XX asr 80-yillar oxirida davlatimiz rahbari Islom Karimov tomonidan izchil va jasorat bilan yana kun tartibiga qo'yildi va Vatanimiz ozodligi hamda mustaqillikni qo'lga kiritishda muhim omil bo'ldi. Ular mamlakatimizda mislsiz o'zgarishlarni amalga oshirish, xalqimiz hayoti va taraqqiyotini belgilab olishda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga asoslangan ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish kabi oliy maqsadlarimiz ifodasi bo'lib kelmoqda.

Inson hayotida ham, jamiyat taraqqiyotida ham g'oyalar muhim o'rin tutadi. SHu ma'noda, **insoniyat tarixi - g'oyalar tarixidir.**

Xo'sh, g'oya nima, nega unga bu qadar katta e'tibor va ahamiyat beriladi? Ma'lumki, har qanday millat va xalq, har qanday ijtimoiy tuzum va davlat muayyan bir tamoyillar va qadriyatlar asosida hayot kechiradi hamda o'z manfaatlarini, maqsad-muddaolari, orzu-intilishlarini ko'zlab harakat qiladi.

Binobarin, ular hayotdagi ma'lum bir mafkuraga tayanadi. Inson tafakkuri voqelikni idrok etish mobaynida turli fikrlar, qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar yaratadi. Binobarin, **g'oyalar ham inson tafakkurining mahsulidir.** Lekin tafakkur yaratgan har qanday fikr yoki qarash, mulohaza

yoki nuqtai nazar g'oya bo'la olmaydi. Faqat eng kuchli, ta'sirchan, zalvorli fikrlargina g'oya bo'la olishi mumkin.

G'oyalarning xilma-xil turlari mavjud. Olamning vujudga kelish, mavjudlik qonuniyatlari, uning asosini nima tashkil etgani kabi masalalarni falsafiy talqin etish natijasida monizm, dualizm, plyuralizm, idealizm va materializm singari oqimlar vujudga kelgan.

Milliy g'oya - inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari yetaklaydigan, yangicha dunyoqarash va e'tiqod asoslarini shakllantiradigan fikrlar majmuidir.

Mazmuni va namoyon bo'lish shakliga qarab, g'oyalarni bir qancha turlarga ajratish mumkin.

1. Ilmiy g'oyalar.
2. Falsafiy g'oyalar.
3. Diniy g'oyalar.
4. Badiiy g'oyalar.
5. Ijtimoiy-siyosiy g'oyalar.
6. Milliy g'oyalar.
7. Umuminsoniy g'oyalar va hokazo.

O'z oldiga qo'ygan maqsadi, qanday jamiyat qurmoqchi ekani, bunga qanday yo'llar va vositalar bilan erishmoqchi bo'layotgani haqidagi g'oyalar tizimi har bir millat, xalq va jamiyatning milliy mafkurasi asosini tashkil etadi.

G'oyaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati juda muhim falsafiy masaladir. Inson o'zi g'oyalarni yaratadi, ulardan kuch-quvvat oladi. O'zi yaratgan g'oyalar insonning ongi va shuurini, tafakkuri va e'tiqodini egallab, uning sohibiga aylanadi. YUksak g'oyalar odamlarni olijanob maqsadlar sari yetaklaydi. G'oyasi yetuk, e'tiqodi butun, qadriyatlari yuksak insongina mardlik namunalari ko'rsata oladi.

Har bir xalqning tarixi shu xalqdan yetishib chiqqan buyuk siymolar, mard qahramonlar va fidoiy insonlar tarixi asosida bitiladi. Xalqimizning SHiroq va To'maris, Spitamen va Muqanna, Temur Malik va Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur va Bobur Mirzo kabi mard farzandlari - buyuk g'oya sohiblaridir.

Ming yillar o'tsa ham, ulug' ajdodlarimizning matonati va qahramonligi xalqning xotirasidan o'chmaydi. Chunki ular yuksak g'oyalar - Vatan ozodligi, el-yurt baxt-saodati, ilmu urfon rivoji yo'lida jon fido qilganlar. Ahmad YAssaviy butun umrini haq ishqida o'tkazganida ham, Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi jang qilganda ham ulug'vor g'oyalar ularga sabr-bardosh va matonat ato etgan. Jordano Bruno jismu jonini egallagan buyuk g'oya tufayli gulxan alangasida ham o'z e'tiqodidan qaytmagan, Nasimiyni tovonidan so'ysalar ham, ishq ilohiy deb jon bergan. Jahon tarixidan, jumladan xalqimizning o'tmishidan ham, qaysi sohada bo'lmasin, mardlik va jasorat ko'rsatish uchun insonga albatta ulug'vor g'oya kerak ekaniga ko'plab misollar topiladi.

Mafkuraviy plyuralizm (lot. Pluralis - xilma-xillik, rang-baranglik) - ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi. Inson va jamiyat hayotida g'oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bo'lishi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj ifodasidir.

YUnon faylasuflari Aristotel ikkita inson aynan bir xilda fikrlamaydi, ularning olam haqidagi tushunchalari, fikrlari xilma-xildir deganda haq edi. Darhaqiqat, dunyodagi xalqlar, millatlar, mamlakatlar va davlatlar ham bir-biridan farq qiladi. Ularning diniy e'tiqodi, milliy madaniyati, demakki mentaliteti, maqsadlari va taraqqiyot yo'llari ham rang-barangdir. Ana shu dunyodagi har bir davlat, xalq va millat, jamiyatning maqsad va manfaatlarini o'ziga xos g'oyasi va mafkurasi mavjud.

Muayyan bir g'oya dastlab biron-bir shaxsning ongida paydo bo'ladi. Ayni paytda u yuksak ijtimoiy mazmunga ega bo'lgani, jamiyatning taraqqiyot yo'lidagi ezgu intilishlarini aks ettirgani bois umuminsoniy haqiqatga aylanadi. Jahon tajribasiga nazar tashlasak, butun dunyo taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan nazariy ta'limot va mafkuralarni yaratish uchun insoniyat tarixining turli davrlarida ulkan aql-zakovat, iste'dod va terak tafakkur sohiblari mislsiz zahmat chekkanini ko'ramiz. Suqrot va Platon, Konfutsiy va Zardusht, Alisher Navoiy va Maxatma Gandi kabi buyuk mutafakkirlar faoliyati buning yaqqol tasdig'idir.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir», degan so'zlarida ham ana shu boqiy g'oyalarning ma'no-mazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga otabobolaridan merosdir.

SHarqda, jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. Ular asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

Milliy davlatchilik g'oyasi va uning xalqlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini mustaqil O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbekistonning xalqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlik borasida olib borayotgan siyosati barqarorlik hukm surishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Muayyan tarixiy davrlarda ba'zi mafkuralar davlat ideologiyasi darajasiga ko'tarilgan. Zamonlar o'tishi bilan ularning ayrimlari o'z mavqeini

yo'qotgan, lekin millat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatida saqlanib qolgan. Xalq ulardan quvvat olgan, ma'naviy oziqlangan, ular orqali o'z qadriyatlarini saqlagan.

Insoniyat tarixida o'z talab-ehtiyojlarini boshqa xalqlar hisobiga qondirish istagi talonchilik va bosqinchilik, buyuk davlatchilik va tajovuzkor millatchilik, fashizm va ekstremizm kabi mafkuralarni yuzaga keltirgan. Bunday g'oyalar xalqlar boshiga ko'p kulfat va musibatlar solgan.

Bunyodkor g'oyalar va mafkuralarning jamiyat hayotidagi ijobiy ta'siri

G'oya va mafkuraning tarixiy shakllarini, mazmun-mohiyatini azal-azaldan ezgulik va yovuzlik, bunyodkorlik va vayronkorlik o'rtasidagi kurash dialektikasi belgilab keladi, ya'ni bosqinchilik, boshqalar hisobidan boyish, tajovuzkorlik, aqidaparastlik mafkuralariga qarama-qarshi o'laroq, ozodlik, mustaqillik va adolat g'oyalari uzluksiz maydonga chiqib, xalqlarning muzaffar bayrog'iga aylangan. Bunyodkorlik g'oyalari insonni ulug'laydi, uning ruhiga qanot bag'ishlaydi.

Bunyodkor g'oya deb, insonni ulug'laydigan, uning kuch-g'ayrati va salohiyatini oshirib, xalqi, Vatani, butun insoniyat uchun foydali ishlar qilishga safarbar etadigan, o'zida mehnat, taraqqiyot, do'stlik, tinchlik, adolat, halollik kabi ezgu maqsadlarni mujassam etadigan g'oyaga aytiladi.

Bunyodkorlik g'oyalari yurtni obod, xalq hayotini farovon qilishdek olijanob maqsadlar bilan ajralib turadi. Ular insoniyat sivilizatsiyaga erishgan davrlardan buyon jamiyat hayotining eng ezgu g'oyalari sifatida yashab kelmoqda. Prezident Islom Karimovning «O'zbek tom ma'noda bunyodkordir» degan so'zlarida ham ana shu boqiy g'oyalarning ma'nomazmuni o'z ifodasini topgan. Bunday bunyodkorlik xalqimizga otabobolaridan merosdir.

Insoniyat tarixida odamlar ongi va shuuriga adolat, haqiqat, ezgulik, mehnatsevarlik kabi yuksak g'oyalar urug'ini sepgan zot, payg'ambar

Zardo'sht yaratgan «Avesto» kitobida quyidagi satrlar mavjud: «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu ishni alqayman. O'zimni bori ezgu fikrga, ezgu so'zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so'zu yomon ishlardan yuz o'giranman». Bu yuksak g'oyalar bundan 2700 yil muqaddam yashab o'tgan vatandoshimiz Zardushtning o'lmas mafkurasi edi.

Insoniyat doimo yaxshilikni yoqlab, yomonlikka qarshi kurashadi, yaratuvchanlik va bunyodkorlik unga xos bo'lgan buyuk fazilatlaridir. SHarq xalqlarining buyuk ijodkorligi, bunyodkorligi va qadriyatlari turli davrlar ta'sirida g'arbga, xususan, antik YUnon-Rim madaniyatiga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ana shunday ta'sir ostida YUnon-Rim madaniyati, ilm-fani, falsafiy tafakkur dunyosi shu qadar yuksaldiki, o'sha davrda yaratilgan shoh asarlar va ularning mualliflari merosi hanuz bashariyatning ezgu ishlariga xizmat qilib kelmoqda. SHu ma'noda, komil ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatning haqiqiy umumbashariy madaniyati g'arb sivilizatsiyasi va SHarq ma'naviyatining qo'shilishi asosida yaratilgan.

Suqrot (Sokrat, mil. av. 470-399 yy.) esa bahs orqali, ya'ni muayyan masalalarni o'rta qo'yish va ularga javob topish yo'li bilan haqiqatni aniqlash mumkin, deb bilgan. U ezgulik - bilim va donishmandlikdir, yaxshilik mohiyatini to'g'ri anglagan insongina yaxshilik qiladi, deb tushuntiradi. Suqrot adolatga xilof bo'lgan davlat boshqaruvining hamma shakllarini tanqid qiladi, faqatgina adolatli, demokratik davlat boshqaruvini yoqlab chiqadi.

Masalan, A.Makedonskiyning ustoz, o'zining bu jahongir shogirdi Osiyoni mahv etgach, unga yuborilgan «Avesto» kitobini chuqur o'rgangan YUnon faylasufi va qomusiy olimi **Arastu** (Aristotel, mil. av. 384-322 yy.) o'z g'oyaviy qarashlarida ustoz Aflotun (Platon, mil. av. 427-348 yy.) g'oyalarini boyitdi va unga muhim o'zgartishlar kiritdi. U jamiyatda bo'lib

o'tayotgan barcha voqeliklar tabiatga xos deb biladi. Bu bilan jamiyatni tubdan o'zgartirish g'oyalariga qarshi chiqadi va jamiyat rivoji tabiiy jarayonlar tarzida kechishi kerak, deb hisoblaydi.

Suqrotning shogirdi Aflotun esa g'oyalar umumiy tushunchalar sifatida odam aqliga bog'liq emas, balki u ilohiy tushunchalar deb izohlagan edi. Uning asosiy g'oyasi - ezgulik yoki yagonalik edi. Bunda oliy g'oya ko'pincha xudoga tenglashtiriladi.

SHarqda, ya'ni Turon zaminda esa jamiyat rivoji va bunyodkorlik g'oyalari xususida Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy qarashlari o'ziga xos o'rin tutadi. «Al-muallim as-Soniy» («Ikkinchi muallim»), SHarq Aristoteli deb nom olgan **Abu Nasr Forobiy** (873-990 yy.) o'zining «Fozil odamlar shahri», «Fuqarolik siyosati», «Baxt saodatga erishuv haqida» kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum haqidagi o'z fikr-mulohazalarini bayon qilib, o'z davri uchun izchil ta'limot yaratdi. U har tomonlama yetuk, barcha aholini baxt-saodatga, ilm-ma'rifatga olib boruvchi ideal jamoa haqidagi g'oyalarni olg'a surdi.

O'sha davrning buyuk mutafakkirlari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinoning bu boradagi qarashlari ham o'ziga xosdir. Ular har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o'rganishga, keyin xulosa chiqarishga intilganlar, barcha bunyodkorlik insonning mehnatiga bog'liqligini ta'kidlaganlar. Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi Alisher Navoiy esa o'z asarlari bilan jamiyat taraqqiyotining zamonasiga xos fazilatlarini yoritishga harakat qilgan. U she'rlari va dostonlarida razolatga, beqarorlikka, urushu janjallarga, ma'rifatsizlikka qarshi kurash g'oyalarini ulug'laydi. Insonlarni mehnatga, yaratuvchanlikka, adolatga chaqiradi. Ma'rifatga asoslangan jamiyat yaratishni orzu qiladi. Uning bu orzulari «Farxod va SHirin», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlarida o'z ifodasini topgan. SHoirning bevosita o'zi ham qator bunyodkorlik ishlariga bosh-qosh bo'lgan.

Ko'hna Turon o'z boshidan buyuk tarixiy voqealar ichida Amir Temurning bunyodkorlik g'oyalari va amaliy faoliyati katta ahamiyatga ega. U garchi fotihlar qatoridan o'rin olib, behisob jangu-jadallarni boshidan kechirgan bo'lsa-da, asosiy maqsadi bunyodkorlik va yaratuvchilik bo'lgan. Jumladan, u «Temur tuzuklari»da: «Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, kerakli uskunalarni yetkazib berib, unga yordam berilsin», deb ko'rsatma beradi. SHu o'rinda, yurtboshimizning Amir Temur o'z davlatini aql-zakovat va huquqiy asos bilan idora etgan, desak, adolatdan bo'ladi, degan fikrlari nihoyatda o'rinlidir. Zero Sohibqironning Movarounnahr, Xuroson va boshqa joylarda bunyod etgan inshootlari, uning o'zi va temuriylar sulolasi davridagi madaniyat, fan, adabiyot sohasidagi yutuqlar bunga misol bo'la oladi.

O'rta asr bunyodkor g'oyalari:

I. O'rta SHarq bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari:

- 1) Islom diniy ta'limoti. Qur'on va Payg'ambar Muhammad oliy hissalomning Hadislari.
- 2) Al-Xorazmiy (783–850 yi.).
- 3) Al-Farg'oniy (IX asr 861 y. vafot etgan).
- 4) Imom al-Buxoriy (809–869 yy.).
- 5) Abu Nasr Forobiy (873–950 yy.).
- 6) Abu Rayhon Beruniy (973–1048 yy.).
- 7) Abu Ali ibn Sino (980–1037 yy.).
- 8) YUsuf Xos Hojib (XI asr).

II. Tasavvuf: asosiy yo'nalishlari (tariqatlari) va asoschilari.

- 1) YAssaviy (YUsuf Hamadoniy (1048–1140 yy.), Hoja Ahmad YAssaviy (1041–1166 yy.)).
- 2) Qubraviya (Najmiddin Qubro: 1145–1221 yy.).

3) Naqbandiya (Xojagon). Abduxoliq G'ijduvoni (1270 y. vafot etgan, Bahouddin Naqband (1318–1389 yy.).

4) Mavlaviya. Jololiddin Rumi (1207–1273 yy.).

O'rta asr SHarq bunyodkor g'oyalari:

Pahlavon Mahmud (1248–1325 yy.).

Amir Temur (1336-1045 yy.).

Alisher Navoiy (1441–1501 yy.).

Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530 yy.).

Boborahim Mashrab (1640–1711 yy.).

Uyg'onish davri bunyodkor g'oyalari: Uyg'onish davri G'arb bunyodkor g'oyalari va ta'limotlari.

N.Makiavelli (1469–1527 yy.).

Tomas Mor (1478–1535 yy.).

Jordano Bruno (1548–1600 yy.).

Hind xalqining buyuk farzandi **Mahatma Gandi** (1869–1948) o'z ma'naviyati, g'oyalari va ilg'or qarashlari bilan XX asrning buyuk shaxslaridan biriga aylangan. U mustamlakachilarga qarshi kurashning timsoli edi. U hindlar bilan musulmonlarning o'zaro do'stligini mustahkamlashga intildi. Gandi din bilan siyosatni bir-biriga bog'lashga harakat qildi. Unga xalq «Mahatma» - «Buyuk qalb» deb nom bergani ham shundan bo'lsa, ajab emas. R.Tagor fikriga ko'ra: «Gandi muvaffaqiyatining siri uning jo'shqin ma'naviy kuchida va behad darajada o'z manfaatlaridan voz kechishidadir. U o'zining olihimmatligi bilan noyobdir. Gandi hayotining o'zi fidoyilik timsolidir».

Milliy davlatchilik g'oyasi va uning xalqlar taraqqiyotiga ijobiy ta'sirini mustaqil O'zbekiston misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. O'zbekistonning xalqaro hamkorlik, mintaqaviy tinchlik, millatlararo totuvlik borasida olib borayotgan siyosati barqarorlik hukm surishiga asos bo'lib xizmat qilmoqda.

1.3. Milliy istiqloq mafkurasini yoshlarimiz ongiga singdirish yo'llari

Milliy istiqloq g'oyasini targ'ib qilishda ma'naviyatni rivojlantirishda asosiy yondashuv ma'rifiy yondashuv bo'lsa ham bu jarayon milliy istiqloq g'oyasining xususiyatlari bilan bog'liq. Jahondagi globallashtirish jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi. Aslini olganda, globallashtirish jarayoni bo'lmasa, milliy g'oyaga ham ehtiyoj oshmas edi. Chunki globallashtirish bo'lmaganda har bir xalq va millatning ma'naviyati o'zicha mavjud bo'lar va imkoniyat darajasida rivoj topardi. Tashqi ta'sir va tahdidning yo'qligi esa milliy g'oyaga ehtiyojni ham dolzarblashtirmas edi.

Milliy istiqloq g'oyasining mohiyati shundaki, u odamlar ongida, xotirasida g'oyaligicha qolmay, amaliyotga, hayotga aylangan taqdirdagina haqiqiy milliy va haqiqiy istiqloq g'oyasi bo'lishi mumkin. Shundagina u globallashtirish sharoitida milliy ma'naviyatni va ma'naviy o'zlikni tashqi nosog'lom g'oyaviy tahdidlardan himoya qiladigan kuchga aylanadi⁵.

Bugungi kunda inson ongi va qalbi uchun kurash keskin tus olayotgan ekan, xilma-xil qarashlarning mafkura maydonida hukmronlik qilishga intilishi tabiiy, albatta. Bunga e'tiqod umumiylikiga asoslangan holda yakka mafkura hukmronligini ta'minlash orqali jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan o'ziga qaram qilishga bo'layotgan xatti-harakatlarni misol keltirish mumkin.

Diniy aqidaparastlik ham shular jumlasidandir. Masalan, islom dinidagi hozirgi aqidaparastlar ijtimoiy, milliy xususiyati, qaysi davlatga mansubligidan qat'iy nazar, barcha musulmonlarning ma'naviy birligi haqidagi tasavvurlarga tayanib, ularni yagona xalifalik ostida siyosiy birlashuvi g'oyasini asoslashga harakat qiladi. Ko'rinib turibdiki, bu ideologiya diniy asosda birlashuv g'oyasini birinchi o'ringa qo'yadi.

⁵ Эргашев И. ва бошқ. Миллий истиқлол ғояси: Ўзбекистон Республикаси Олий таълим бакалавриат босқичи учун дарслик. -Т.: Академия, 2005. 87-бет.

Ammo, jiddiy e'tibor beriladigan bo'lsa, ***birinchidan***, ular milliy suverenitetdan voz kechish hisobiga yagona davlat tuzishni ko'zlayotganliklari ma'lum bo'ladi. ***Ikkinchidan***, xalifalikni tiklashga, uning to'g'ri ekanini asoslashga urinuvchilar, bu hol aynan millat sifatida o'zligimizni anglashga yo'l qo'ymasligini yashiradilar. Bu g'oyani taqishtirishda ular bizning islom diniga e'tiqod qilishimizga alohida urg'u beradilar. Bundan tashqari, bu oqim tarafdorlari xalifalik bayrog'i ostida birlashishni noislomiy dunyoga qarshi turish maqsadi bilan bog'lashlarini ham ta'kidlash zarur.

Bunday yondashuv o'ta xavfli ekanligi hech kimga sir emas. Zero, u insoniyatning diniy asosda qarama-qarshi qutblarga bo'linib ketishiga, ba'zan «sivilizatsiyalar to'qnashuvi» deb ataladigan hodisaning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan, demokratik, huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Zero, ko'zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o'zida mujassamlashtirgan g'oyaviy-nazariy qarashlar majmui bo'lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emasligi aniq.

«Men, - deb yozadi Prezidentimiz, - Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir» degan fikrini ko'p mushohada qilaman.

Buyuk ma'rifatparvarning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbdir» (Karimov I.A. Asarlar. T.7. 93-94-betlar).

Bu masalaning dolzarbligi yuqorida qayd etilgan mafkura shakllarining xavfini bartaraf etish zarurligi bilan ham belgilanadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlagandek, ularga g'oya va ma'rifat yo'li bilan qarshi kurashish lozim.

Mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlikni saqlab qolish va rivojlantirish yo'li bilangina qo'lga kiritilgan istiqloolni himoya qilamiz. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan tarix taqozosi bilan aloqalar kuchli rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat, o'zaro manfaatli aloqalar esa mustaqil-likni mustahkamlashning muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Ana shundagina, YUrtboshimiz ta'biri bilan aytganda, mintaqamiz hech qachon sivilizatsiyalar to'qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ta'sir etib, bir-birini boyitish-ning ibratli namunasini beradigan makonga aylanadi.

Milliy istiqlol mafkurasi - har bir kishining jamiyat hayotidagi faoliyati, yurti, millati, o'zi va oilasi oldidagi burch va mas'uliyatini qay darajada his etayotgani va bajarayotganini belgilaydigan ma'naviy mezon hamdir. Milliy istiqlol mafkurasining yurtimizda yashovchi har bir fuqaro uchun qadrliligi shundaki, uning mohiyatida quyidagi umuminsoniy tamoyillar yotadi. Milliy istiqlol mafkurasi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, demokratiya tamoyillariga asoslanadi. Binobarin, u qonuniylikka, umume'tirof etilgan talablarga, umumbashariy tamoyillarga va milliy manfaatlariga mos keladi.

2. Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma'naviyati, an'ana va udumlari, ulug' bobokalonlarimizning o'lmas merosidan oziqlanadi. Bu milliy mafkuramizning chuqur tarixiy va boy ma'naviy asosga ega ekanligidan dalolat beradi.

3. Adolat va haqiqat, erkinlik va mustaqillik g'oyalari hamda xalqimizning ishonch va e'tiqodini aks ettiradi. Bilamizki, bu ulug' g'oyalar

istiqlol sari intilgan har bir xalqning ezgu maqsadi, ishonch va e'tiqodi bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

4. YUrt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu tamoyil uning jamiyat a'zolarini aniq maqsad sari safarbar qiluvchi, ularni bu yo'lda uyushtiruvchi ma'naviy omil sifatida mohiyatga ega ekanini ifodalaydi.

5. Jamiyat a'zolarini, aholining barcha qatlamlarini O'zbekiston-ning buyuk kelajagini yaratishga safarbar etadi. Bu olijanob maqsadlarga erishish fuqarolarning hamjihatligiga, o'zimizning burchimizni qay daraja-da anglashimiz, ertangi kunga bo'lgan ishonchimizga ko'p jihatdan bog'liqdir.

6. Millati va dinidan qat'iy nazar, mamlakatimizning har bir fuqarosi qalbida ona - Vatanga muhabbat, mustaqillik g'oyalariga sadoqat va o'zaro hurmat tuyg'usini qaror toptiradi. Bu qoida har bir fuqaro ongiga Vatanning muqaddasligini singdirishga xizmat qiladi.

7. Jamoatchilik qalbi va ongiga fikrlar xilma-xilligi, vijdon erkinligi kabi demokratik tamoyillariga rioya qilgan holda ma'rifiy yo'l bilan singdiriladi.

Milliy istiqlol mafkurasi yaxlit tizim bo'lganidan uning barcha xususiyatlari o'zaro aloqadorlikda va uzviy bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

Milliy istiqlol mafkurasi xalqimizning o'ziga xos tabiati, iro-dasi, orzu-intilishlarini ifodalaydigan quyidagi milliy xususiyatlarni zamon talablari asosida yanada boyitishni nazarda tutadi:

XXI asr har jihatdan murosa va kelishuvlar asri bo'ladi. Dinlar, mazhablar, ta'limotlar orasida murosasozlik yuzaga kelishi, inson baxti uchun xizmat qiladigan narsalar eng muhim qadriyat deb qabul qilinishi lozim. Nimaiki inson uchun yaroqli bo'lsa, u maqbul, nimaiki insonlar hayotiga xavf solsa, taraqqiyotga, o'zaro yaqinlashishiga xalaqit bersa, u nomaqbul va zararlidir. Insoniyat tarixi shunga guvohki, dunyo ilm-ma'rifati

jamlangan, sintezlashgan joyda yuksak taraqqiyot vujudga keladi, inson shaxsi kamol topadi.

Zotan, Islom Karimov o'zining «Istiqlol va ma'naviyat»¹ nomli to'plamida umumbashariy g'oyalarni milliy ma'naviyatning negizlaridan biri deb ko'rsatgan edi. Chunki milliy ma'naviyat quruq yerda paydo bo'lmaydi, u xalq-ning tarixan shakllangan urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlar bilan qo'shilib boyib boradi. Boshqacha aytganda, umumjahoniylik, milliylik ruhida ongiga mazmun kasb etadi va rivojlantiriladi. Shu ruhda tarbiyalangan odam esa demokratik tamoyillarga moyil, ozod ruhli kishi bo'ladi.

Biz bolalarimizni chin ma'noda jahon bilan bahslashga oladigan o'ktam, dili va tilidan odamlar ozor chekmaydigan, sharqona odob-axloqli, ammo haqini bировga bermaydigan ham jisman, ham aqlan, ham ruhan sog'lom, bardam qilib tarbiyalashimiz lozim. Ular Forobiy, Ibn Sino, Bahovuddin Naqshband, Mirzo Ulug'bek kabi ulug' bobolarimiz merosini ham Shekspir va Dante, L.Tolstoy va Gyote, Bayron va Gyugo merosini ham o'rgansin, bahra olsin, xalqiga va zamonaga munosib farzandlar bo'lib yetishsin.

Milliy tarbiyaning bosh maqsadi deganda:

- a) eski totalitar mafkuradan ozod;
- b) qulik, mute'likni tan olmaydigan;
- v) ma'naviy zulmdan ozod;
- g) haq-huquqini tanigan;
- d) o'z kuchi, imkoniyatlariga ishongan;
- e) o'z fikri, qarashiga ega bo'lib, atrofdagi voqea-hodisalarni xoli-sona tahlil qila oladigan;
- j) hirsu havolardan qutulgan, salohiyatli, fidokor, ezgu niyatli shaxslar, komil insonni shakllantirish tushuniladi.

²¹ И.А.Каримов. Истиқлол ва маънавият. — Т.: Ўзбекистон, 1998, 64-бет.

SHaxslari ana shunday kamolga yetgan yurt har jihatdan taraqqiy topadi, xalqi ham to'q va farovon yashaydi. Fayrat-shijoat, qobiliyat, bilim va samarali tadbirkorlik - mamlakat taraqqiyotining bosh mezonidir. Ulug' fransuz adibi V.Gyugo aytgan edi: «Dunyoda kichik xalqlar yo'q.... Odamning ulug'ligi uning bo'y-basti bilan o'lchanmaganiday, xalqning buyukligi ham hech qachon uning sonining ko'pligi bilan o'lchanmaydi». Ammo o'zlikni anglash barobarida uning o'ziga xos xususiyatini saqlash va takomillashtirish ham muhim o'ringa ega bo'ladi. Ma'naviy qadriyatlarni tiklash orqali, o'zbek xalqi o'z ajdodlari kim, dunyo xaritasida qanday mavqega ega ekanini bilib olmoqda. I.A.Karimov «Biz hech kimdan kam emasmiz va hech kimdan kam bo'lmaymiz», «O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi» (2005) deganda **ikki jihatni nazarda tutadi:**

1) Jahon madaniyatiga hissa qo'shgan, tariximiz ana shu milliy g'urur, qobiliyat, intilish negizida jipslashib bir maqsad sari harakat qilishga zamin bo'lmoqda.

2) Endigi vazifa - ana shu zaminga imkoniyatni ishga solish, ya'ni o'qib-o'rganib, bilim-malaka hosil qilib, dunyo maydoniga dadil kirib borish hamda o'z o'rnini egallab olishdan iboratdir.

Ammo ana shu yo'lda o'zlikni yo'qotmaslik, o'z milliy tafakkuri, an'analari, ajoyib xususiyatlarini saqlab qolish lozim. Bu esa ancha mushkul vazifa. CHunki taraqqiy etgan mamlakatlarning hammasi ham bizni quchoq ochib qarshi olayotgani yo'q. Bu - ***birinchidan, ikkinchidan***, ular har bir holatda ham o'z milliy manfaatidan kelib chiqib munosabatda bo'ladi. Hatto, demokratiyani «eksport» qilishdan ham manfaatdor ayrim kuchlar bor. CHunki bu ularga mamlakat boyliklarini o'zlashtirish, arzon ishchi kuchidan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Demokratiyani yagona, yevropacha turmush tarzi mezonlari bilan baholamoqchi bo'ladi.

Ana shuning uchun ham milliy tarbiya masalasi bugungi kunda dolzarb masala bo'lib turibdi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi aynan shu maqsad uchun qabul qilindi. Farzandlarimiz yangicha yashashga tayyor bo'lishi va eng muhimi, O'zbekistonning gullab-yashnashiga hissa qo'shishi kerak. YOshlarimiz zamonaviy bilim, zamonaviy malaka, zamonaviy qobiliyat egalari bo'lib yetishsin. Milliy g'oyaning bosh maqsadi ham shu!

Lekin bu yerda gap faqat ta'lim-tarbiya tizimi haqida borayotgani yo'q. Bu yerda gap umuman jamiyat tizimi, yaxlit olganda, O'zbekiston xalqini yuksaltirish ustida bormoqda. Milliy o'zlikni anglash bilan milliy o'zlikni saqlash o'zaro vobasta, biri ikkinchisini rivojlantiradi. Ayni paytda milliy o'zlikni saqlash muhim masala bo'lib qolmoqda. Avvalo, buning uchun biz milliy qadriyatlarni tiklash bilan chegaralanmasdan, ular shakllanib kelayotgan avlod tomonidan qanchalik qabul qilinmoqda, sevil-moqda, davom ettirilmoqda, degan savollar ustida ham bosh qotirishimiz lozim. Zero, eng katta xavf ham ilg'or mamlakatlar mafkurasidagi individualizm ta'siriga tushib, o'zlikni yo'qotishdir.

Mana shuning uchun ham milliy g'oya ruhidagi tarbiya benihoya muhim va biz uchun hayot-mamot masalasidir. Bunda axloqiy va huquqiy tarbiya birga rivojlantirilishi, milliy o'z-o'zini tahlil va tanqid ham muayyan o'rin egal-lashi lozim. Chunki millat o'zini o'zi ma'nan tozalab, poklab borishi kerak.

Mafkuraviy tarbiya - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyo-qarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon.

Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarini ham shu g'oyalar ta'siriga tortishga, o'z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qiladi. Foyalar adolatli va haqqoniy bo'lib,

ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi.

Jamiyat, xalq hali o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkura-sini shakllantirib, maqsadlar sari safarbar bo'lmagan hollarda begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O'zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi - xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, Milliy istiqlol mafkurasi-ning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa, yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir.

Mafkuraviy tarbiya jamiyatda, avvalambor, oila, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litsey, kollejlari, oliy o'quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi uzluksik faoliyatini taqozo qiladi. Uzluksiz ta'lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo'g'indir, zero mafkuraviy maqsadlarni yoshlar ongiga singdirish vazifasi asosan ta'lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Fransuz faylasufi SHamfor Nikola Sebastian Rok (1741-1794) fikricha, «Tarbiya ikki narsaga: axloqqa va mulohazakorlikka tayanmog'i kerak. Axloq ezgulikka tirgak bo'lsa, mulohazakorlik yomonlikdan asraydi. Agar siz faqat axloqqa suyansangiz, anqov va javokashlarni, faqat mulohazakorlikka tayansangiz, o'ziga pishiq hudbinlarni tarbiyalab yetishtirasiz»¹, degan edi.

Milliy istiqlolimiz rivojining hozirgi bosqichi ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy ishlar ta'sirchanligini oshirish, ommani buyuk maqsadlar yo'lida

¹ Ҳақиқат манзаралари. 96 мумтоз файласуф. -Т.: Янги аср авлоди, 2002, 332-бет.

safarbar etish, uyushtirish uchun asosiy e'tiborni quyidagilarga qaratishni taqozo etmoqda:

- 1) Milliy g'oya va milliy mafkuraga oid targ'ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirish va uning qamrovini kengaytirish;
- 2) Garchi achchiq bo'lsada, haqiqatni aytishdan cho'chimaslik.
- 3) Soxtakorlikdan qochish.
- 4) Hayotdagi qiyinchilik, muammolarni ochiq-oydin bayon etish.
- 5) Ommani ruhlantirish, ishonch-e'tiqodni mustahkamlash.
- 6) Prezidentimiz atrofiga yanada mustahkamroq jipslashishga da'vat etish, ziyoli, ma'rifatchi, mafkura ishi bilan shug'ullanuvchi barcha targ'ibot-tashviqotchilarning birinchi darajali vazifasidir.
- 7) Maqsadimiz ma'rifatli jamiyat barpo etishdan iborat, bu jamiyatda qonun ustuvorligi, qonun oldida hammaning mas'ulligi, adolat, Vatan, xalq manfaati ulug' sanalishini inobatga olish.
- 8) Xalq hukmdorlarga emas, hukmdorlar halqqa xizmat qilishi - asosiy qoida.
- 9) Pirovard maqsadimiz adolatli jamiyat barpo etish.¹
- 10) Birovning haqiga xiyonat qilmaslik, diyonatlilik, iymonlilik, halollik mezonini ulug'lash.
- 11) Ma'rifiy-targ'ibot ishlarining shaklan va mazmunan turi: ma'ruza, suhbat va bahs-munozaralar, seminarlar, konferensiyalar o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida chiqish yo'li bilan amalga oshiriladi.
- 12) Mafkuraning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, ta'sirchan, tushunarli tarzda yetkazish uchun odamlar qalbiga yo'l topa oladigan fidoyi inson, ziyolilarga tayanish.

Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani targ'ib qilishda quyidagi tarbiyaviy tamoyil, uslub (metodlar)larga e'tibor berish kerak:

¹ Бобоев Х., Ғофуров З., Исломов З., Миллий истиқлол мафкураси ва тараққиёт. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2001, 174, 176, 191- бетлар.

1) Tushuntirishda va bayon etishda oddiylik va lo'ndalik.

2) Talab va taklifni doimiy nazorat ostiga olish.

3) Ongga ta'sir ko'rsatishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish.¹

4) Ziyolilar mavqeini oshirish, ularga e'tibor va imkoniyat yaratish.

5) Turli bilimlarni egallashga bo'lgan ishtiyoqni qo'llab-quvvatlash.

6) Ommaviy-axborot vositalarida xalq ruhiyatiga yaqinlashtirilgan yangi mafkuraviy materiallarni ko'paytirish, doimiy «aks ta'sir» tamoyi-liga amal qilish.

7) Televideniye va radio zamonaviy ish usullari va shakllarini egallashi uchun rasmiy xabarlarnigina emas, balki xalqaro mezonlarga muvofiq matbuot sahifalarida va televideniya da chuqur tahliliy material-lar, jiddiy siyosiy, iqtisodiy, xalqaro sharhlar, bahs-munozaralar ko'rini-shida bo'lishi lozim.

Demak, Milliy istiqlol g'oyasini yoshlar ongiga singdirishning **asosiy sohalari:** «Oila - bog'cha - maktab - litsey - kollej - oliy o'quv yurtlari - mahalla - jamiyat» tizimlari tashkil etadi.

Milliy istiqlol g'oyasi va milliy mafkurani yoshlar ongiga singdirishning **asosiy yo'nalishlari** esa quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim va tarbiya.
2. Fan va ilmiy muassasalar.
3. Madaniyat va madaniy-ma'rifiy muassasalar.
4. Adabiyot va san'at.
5. Din.
6. Jismoniy tarbiya va sport.
7. Harbiy vatanparvarlik.
8. Urf-odat, marosim va bayramlar.
9. Oila.

¹ Каримова В.М. Ёшларни миллий ғояни ва миллий мафкурани шакллантириш омиллари ва шартлари. Таълим ва тарбия. 2000, № 1-2, 40 – бет.

10. Mahalla.
11. Mehnat jamoalari.
12. Siyosiy partiyalar.
13. Nodavlat tashkilotlar.
14. Ommaviy axborot vositalari va h.k.

Mafkuraviy tarbiya ishini samarali tashkil etish imkoniyatlari hamda haqiqat mezoni asosida baholash tamoyillari

Mafkuraviy tarbiya samarali tashkil etish imkoniyatlari. Bugungi voqelik milliy istiqlol g'oyasi targ'iboti masalasiga alohida e'tibor berishni talab qilmoqda. Chunki «Endilikda yadro maydonlarida emas, - degan edi I.A.Karimov, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi». Hozirgi vaqtda qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishish uchun avvalo zabt etmoqchi, o'z ta'sir doirasiga olmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishga intilayotganligini ham unutmaslik kerak. SHu boisdan mafkura dunyosida bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmasligini, shunday holat yuz bergan taqdirda bo'sh qolgan mafkura maydonida bizga begona, orzu-intilishlarimizga mutlaqo yot g'oyalar o'rin egallashga urinishi shubhasiz. Negaki hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy holatlar, nojo'ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shliq tufayli sodir bo'lmoqda.

SHu boisdan ham ***mafkuraviy tarbiyaning maqsadi*** haqida 1999 yil iyun oyida «Hushyorlikka da'vat» mavzuidagi O'zbekiston milliy axborot agentligi muxbirining savollariga javoblarida, YUrtboshimiz I.A.Karimov: «Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz - jamiyatimiz a'zolarini, avvalambor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularning qalbida milliy g'oya, milliy mafkura, o'z Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini

uyg'otish, o'zligini anglash, milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iboratdir»¹, degan edi.

Har qanday yangi g'oya singari mafkura ham ommaning ongiga chuqur singsa, hayotda chuqur ildiz otsa, amaliyotda o'zini to'la oqlasagina real voqelikka, katta ijtimoiy kuchga aylanadi.

Milliy mafkuramizni hayotga tez va keng yoyish uchun, dastavval uning mohiyatini chuqur o'rganish, maqsadlari, asosiy yo'nalishlari, o'ziga xos xususiyatlarini bilib, o'zlashtirib olish, xalq o'rtasida keng targ'ib-tashviq etish, turli vosita va shakllardan foydalanish talab etiladi.

Endi ijtimoiy soha olimlari, mutaxassislar, ilg'or fikrli ziyoli-lar bu boradagi izlanishlarni chuqurlashtirib, umumlashgan nazariy xulosa-larni ishlab chiqishlari, qisqacha aytganda, mafkuramizning asosiy maqsad-larini xalqqa *sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab* berishlari lozim².

Bizning milliy xususiyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'lanib ketgan. Asrlar davomida xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo'shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va madaniyatini o'rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam³. SHu bilan birga, milliy tabiatimizga xos bo'lgan mehr-oqibat, muruvvat, andisha, or-nomus, sharmu hayo, ibo-iffat kabi betakror fazilatlar va xalqimizni ko'p jihatdan ajratib turadigan bag'rikenglik, mehmondo'stlik, oqko'ngillik xususiyatlari haqida ham uzoq gapirish mumkin.

Mana shu yuqoridagi holatlarni nazarda tutish, mamlakatimizdagi mafkuraviy jarayonlarga ham shu nuqtai nazardan yondashish, milliy istiqlol

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. Т.8. -Т.: «Ўзбекистон», 2000, 24, 491-492–бетлар.

² Ўша жойда 27-28-бетлар

³ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8- том. Т.: «Ўзбекистон», 2000, 24, 503 – бет.

g'oyasi va milliy mafkuramizni targ'ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Milliy istiqlol g'oyasini yosh avlod ongiga singdirish muayyan uslublar asosida olib borilgandagina yaxshi natija berishi mumkin.

Bu texnologik uslub tadbirlarning **ketma-ketligi, miqyosi va me'yori, davomiyligi va tamoyillari** singari jihatlarini qamrab oladi. Bu masalaning muhimligi yana shunda ko'rinadiki, targ'ibotda me'yorning buzilishi, miliy mafkura to'g'risida hadeb va noo'rin gapiraverish teskari samara berishi mumkin. Targ'ibot texnologiyasi milliy g'oya va milliy mafkura mazmun-mohiyatiga mos bo'lgan taqdirdagina kutilgan natijaga erishish mumkin.

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining buyuk davlat barpo etish borasidagi maqsad-muddaolarini, milliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka har tomonlama tushuntirish dolzarb vazifalardan biridir. Istiqlol mafkurasini odamlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqozo etiladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda g'oya targ'iboti eng dolzarb masala-lardan biriga aylangan. Endilikda uning targ'ibot-tashviqotiga ham yangicha texnologiyalar, usullar, vositalarni jalb qilish lozim. Milliy istiqlol g'oyasi targ'ibotining ta'sirchanligini oshirish vazifasi ham bu jarayonda yangi texnologiyalarni keng qo'llash zaruratini kuchaytiradi.

II BOB. MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA MAFKURASI – MAXSUS MAKTAB O'QUVCHILARI KAMOLOTI MEZONI

2.1.MILLIY ISTIQLOL G'OYASI VA MAFKURASI – MAXSUS MAKTAB O'QUVCHILARI KAMOLOTI MEZONI

Mamlakatimiz o'z istiqlolining ilk kunlaridan boshlab O'zbekistonning kelajagi bo'lmish yoshlarni har tomonlama kamol toptirishga, yetuk salohiyatli insonlar bo'lib yetishishiga alohida e'tibor bilan qaraydi. Bu borada juda keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Ushbu masalaning davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan ham uning mamlakatimiz taraqqiyoti, yurtimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi uchun nechog'lik muhim ahamiyat kasb etishini xis qilish qiyin emas. Zero prezidentimiz I.A.Karimovning ta'biri bilan aytganda har qanday millatning ravnaqi umumbashariyat tarixida tutgan o'rni, mavqei va shuhrati bevosita o'z farzandlarining aqliy va jismoniy yetukligiga bog'liqdir.

Milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasi bilan axolini ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni miliy g'oyalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Zero yoshlarni ona vatanga mehr muhabbat tuyg'ularini tarbiyalash, ularning mamlakatimizning tinchligi, ravnaqi va farovonligi uchun kurashishga tayyor turadigan fidoiy insonlar qilib yetishtirishni, shuningdek, mafkuraviy kurashlar avj olgan hozirgi davrda yoshlarni yot va begona g'oyalar ta'siridan muhofaza qilish biz pedagoglarning muqaddas burchimizdir. Shunga ko'ra maxsus ta'limga oid o'quv dasturlar va darsliklar mazmuni milliy g'oya va mafkuraga oid mavzular va ular orqali ildizlari baquvvat dunyoni murakkabliklari bilan anglaydigan zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan insonlarni voyaga yetkazishdir. Milliy istiqlol g'oyasi hamda Kadrlar tayyorlash milliy Dasturining asosiy g'oyasi "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" g'oyasiga asoslanadi va unga xizmat qiladi.

O'zbekistonning hozirgi davri , ertasi va bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli uchun mafkuraning to'g'rirog'i milliy istiqlool mafkurasining naqadar muxim va zarurligini xayotning uzi ochik-oydin kursatib va isbotlab turibdi. Milliy istiqlool mafkurasining nechog'li ahamiyatli ekanligi prezidentimiz asarlarida va suhbatlarida ilmiy –nazariy asoslab berilgan.

Aynan milliy istiqlool mafkurasi jamiyat taraqqiyotining muxim omili xalqning istiqbolini belgilaydigan qarashlar .g'oyalar majmui bo'lib, u insoniyat tarixidagi eng ajoyib g'oyalarga ya'ni insonparvarlik,vatanparvarlik, mexnatsevarlik, ijtimoiy adolat, tenglik, hamjixatlik, o'zaro totuvlik, inoqlik, do'stlik –birodarlik haqidagi qoida va ta'limotlarga asoslanganligi bilan e'tiborga sazovorlidir.

Milliy istiqlool mafkurasining bir qator xususiyatlari qatorida shuni ham aytish lozimki, u millatu yurtni buyuk maqsadlarga chorlovchi safarbar etuvchi bosh mezondir.

Milliy istiqlool mafkurasi biz yaratmoqchi bo'lgan muhit, biz qurmoqchi bo'lgan buyuk davlat , biz orzu qilib yashamoqchi bo'lgan turmush tarzi alomatlarinini belgilab beradi.

Aloxida yordamga muhtoj o'quvchilar mehnat tarbiyasida milliy qadryatlardan foydalanish samaradorligi.

O'zbek xalqining qadimiy kasbkorligi asosan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bo'lgan. Ushbu kasbkorlar yuzlab yillar davomida shakllanib, har biri o'z ichida tarmoqlarga ajratgan. Shaharlarda hunarmandchilik tarmoqlari yashnagan bo'lsa qishloqlarda dehqonchilik va chorvachilik rivojlongan, har bir kasbkor yillar davomida o'zining o'nlab, yuzlab atamalarni shakllantirgan.

Oila tashqi muhitning xalq tarbiyasidagi roli barqaror bo'lmagan va ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga xos xususiyatlardan kelib chiqqan. Chunki, Avesto jamiyatidagi urug' qabila uyushmalarining birinchi eng quyi

yacheykasi patriarxal oila bo'lib u bazan to'rt avlodga mansub to'qqiztacha guruhni o'z ichiga olgan.

Ikkinchi yacheyka "klon" /urug'/ hisoblangan hamda "triba" /qabila/ va boshqalar undan yuqori turgan. Bir oilaning turli urug'chilik rishtalari bilan bog'langan bolalar oiladan tashqi asosiy muhit bo'lgan. Kattalardan hali har xil yoshdagi bolalar jamoasi o'zining barcha xo'jalik-maishiy vazifalariga ko'ra ma'lum darajada mahdudlik va mustaqillik hisoblangan.

Islom dini qabul qilinguncha urug' jamoalaridagi mashg'ulotlar to'rt guruhga bo'lingan. Bolalar oiladan tashqi mashg'ulotlarda ota-onalarining hayoti va turmushini takrorlaganlar. Shuning uchun bolalar muhitida kulolchilik ishlari ham bajarilar, o'g'il bolalar loy va qumdan kichkina idishlar, o'yinchoqlar yasash, qiz bolalar shlomchalar to'qigan, ko'chmanchi chorvadorlikning bolalarni ana shunday mashg'ulotlardan tashqari, o'y hayvonlarini boqish bilan ham shug'ullanganlar. Jamiyat boy va kambag'allar qatlamiga ajralishiga ko'ra oiladan tashqi bolalar muhitida ham o'zgarishlar ro'y bera boshlagan: boylarning farzandlari o'z sinfining ruhida tarbiyalangan, kambag'allarning o'g'il qizlari esa juda kichik yoshlaridan ota-onalari bilan birga og'ir mehnatda qatnasha boshlagan.

Biz oilada bolalarni tarbiyalashning ijtimoiy xalq an'analari bilan bog'liq shakllarini maxsus guruhga ajratdik. Bular xashar, to'y, bayram, tantanalar va boshqalar ommaviy an'alaridan iboratdir. Mana shu an'anaviy udumlarning xususiyati ularda faqat oila a'zolari emas balki qarindosh-urug'larining ham qatnashuvidir. Masalan: tarbiyaning ommaviy shakllaridan birini E.S.Vilfon qo'yidagicha ta'riflaydi: "har qanday xalq qizlari kabi sart qizi ham hursandchilikni yaxshi ko'radi, hatto ishda ham o'zini bayramdagidek tutadi. Chunonchi, sart ayollari orasida xashar keng tarqalgan : biror ayol yoki qiz g'o'za chivimoqchi, paxta savalamoqchi, ko'rpacha tikmoqchi, boshqa qandaydir ishni bajarmoqchi bo'lsa, o'zining

tanishlarini chaqiradi., va sart xotin-qizlari bunday ishlarni zerikmay, o'yin-kulgi, xursandchilik bilan bajaradigan" shunday "o'y bayramlari" O'rta osiyo xalqlari orasidagi qadimgi davrlardan keng tarqalgan. Oilaviy bayram shaklida tashkil etilgan shu xildagi an'analar, jamoaviy mehnat va hokazolar bolalarning shu xildagi an'analar, urf-odatlar, bilib olinishga, ularda ishtirok etishda muhim rol o'ynaydi.

Xalq pedagogikasida qabul qilingan oilaviy tarbiya shakllarini shartli ravishda quyidagi shakllar va metodlarga ajratish mumkin:

- Og'zaki pand-hasiyat metodlari. (Shu jumladan va avvalo ishontirish).
- O'rgatish metodlari. (kattalarning va bolalarning birgalikdagi faoliyati misolida)
- O'zaro tarbiya metodlari. (taqlid qilish).
- Rag'batlantirish va baholash.

Tarbiya metodlari xalq tarbiyasining asosiy yo'nalishlarini taxlil qilishga ko'rib chiqilishi sababli ushbu bo'limdagi oilaviy tarbiya metodlarining faqat umumiy yo'sinda ko'rib o'tamiz.

2.2. MAXSUS MAKTAB O'QUVCHILARI MAFKURAVIY ONGINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI.

Uzoq o'tmishdan hozirgi kungacha jamiyatimizning insonparvar ma'rifatchilari ruhiy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan nogironlarga xat savodini chiqarish, hunar o'rgatish, hayotga moslashtirish, o'z-o'zini idora qilish jamiyatimiz ravnaqi uchun biron bir foyda keltirishga yordam berishga harakat qilganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mamlakatimiz istiqboli xaqida fikr yuritar ekan, mustaqil O'zbekistonning kuch qudrati manba'i xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidadir. Xalqimiz adolat tenglik,. Ahil qo'shnichilik va insonparvarlikning nozik kurtaklarini asrlar bo'yi avaylab asrab kelmoqda, Oliy maqsadimiz ana shu a'nanalarni qayta tiklash ularga yangi mazmun bag'ishlash, zaminimizga tinchlik, demokratiya, farovonlik, madaniyat, vijdon erkinligi va har bir kishini kamol toptirishga erishish uchun zarur bo'lgan shart-sharoit yaratishdir.

Jamiyatimizda sog'lom kishilar o'rtasida qanchadan qancha nogiron, majrux insonlar mavjud. O'zbekistonda turli nuqson bilan tug'ilgan (intellektual, ko'rish, eshitishida nuqsoni, tayanch harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan bolalar) yoki kasallik natijasida biron-bir nuqson orttirgan bolalarga maxsus maktablarda maxsus ta'lim beriladi. Maxsus maktablarda bunday bolalarni o'ziga xos individual xususiyati, yoshi va nuqson turiga xos maxsus ta'lim berilmoqda. Shuningdek, bolalarni hayotda o'z o'rnilarini topib jamiyatimiz ravnaqi uchun o'zlarining faol mehnatlari bilan hissa qo'shishlari uchun korreksion rivojlantiruvchi ta'lim berib boriladi.

Bugungi yangilanish davr talabi maxsus ta'limda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani yuksak darajaga ko'tarish, ayniqsa, muhim ekanligini dolzarb vazifa qilib qo'ydi. Shuning uchun ham maxsus maktab o'quvchilari ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lmasligi uchun ularning mafkuraviy ongini

mumkin qadar shakllantirib borish hamda ularni istiqlool g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, hozirgi kunning yangicha tarbiyaviy mahoratlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda

Maxsus ta'lim tizimini islox qilishda maxsus maktab o'quvchilarini madaniyatli ma'naviy yuksak qilib tarbiyalashda oligofrenopedagoglar kerakli faoliyat ko'rsatsalar, amaliy tarbiya borasida keskin burilishlar bo'lib juda yaxshi natijalarga erishish mumkin. Zotan, maxsus maktablarda to'g'ri yo'lga qo'yilgan amaliy tarbiya milliy istiqlool mafkurasini, ma'rifiy-manaviy, madaniy taraqqiyot yo'lidagi barcha korreksion tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishni kafolatlaydi. Bu haqda yurtboshimiz shunday deydi: "Milliy mafkurani ongimizga singdiruvchi amaliy tarbiyani yo'lga quyish jamiyatimizda sog'lom muhitni saqlash bilan barobar ekanligini anglashimiz darkor"³

Xakikatdan xam ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning bksaltirishda maxsus maktab o'quvchilarini urab turgan soglom muxit rol uynaydi. Soglom muxit maxsus maktab o'quvchilarining tarbiyaga oid barcha ishlarini tugri xal kilinishiga, maksad va vazifalarining tula amalga oshishiga imkoniyat yaratadi. SHu bois xam soglom muxit maxsus ta'lim muassalari uchun zaruriy v a muxim shartlaridan biridir. Darxakikat, soglom muxitda soglom avlod tarbiyalanadi.,soglom mafkuraviy ongi shakllana boadi. Bola uyida, ta'lim-tarbiya muassalarida kurgani ,urgangani, natijasida ukituvchilar namunaschida olgan saboklari ta'sirida kamolga yetib boradi. Buning uchun esa ,milliy tarbiya mezonini belgilashda xam maxsus maktab o'quvchilarini yesh va individual xususiyatlari, akliy imkoniyatldari, jismoniy yeki ruxiy rivojlanishda nuqson turlar i inobatga olgan xolda yukorida aytib utilganlar amalga oshirib boriladi. Milliy gurur asoslari uz ona tilisi. Madaniyati, milliy burchini angshlash. yu uz tilida tugri suzlash kabilar asos buladi.

³ I.A.Karimov O'zbekistonning siyosiy- ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari, Toshkent "O'zbekiston" 51-57 betlar

Milliy odob, sharqona odob – aqlq, vijdoniylik, halollik, insonparvarlik, vatanga sadoqatlilik, erkin fikrlash, rostgo'y-adolatli bo'lish. Vatan tuprog'ini e'zozlash kabi tushunchalarni maxsus maktab o'quvchilari ongiga xar qadamda singdirib borish tarbiyaning qaysi sohasida bo'lmasin uning tarixini, ota bobolarimiz tajribalarini, ularning bu boradagi pandnoma va nasihatlarini, o'gitlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda xalq og'zaki ijodi, hadislardan foydalanish ham kerakli omil bo'lib xizmat qiladi. Buni amalga oshirish maxsus maktab o'quvchilariga predmet darslarini o'qitish jarayonida va yana ona tili, tarix, tabatshunoslik, Odobnoma, Vatan tuyg'usi kabi dars jarayondlarida amalga oshirilib boriladi. Ular orasidagi bog'liqlik, uyg'unlik oligofrenopedagoglar tomonidan amalga oshirilib boriladi. Ayniqsa, mehnat darslarida o'quvchilarni o'z mehnatlari bilan yurtimiz ravnaqiga o'z hissalarini qo'shib borishga o'rgatib borilishi muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Maxsus maktab o'quvchilari ongiga milliy istiqlol g'oyasi asoslarini singdirish orqaligina ularda zamonaviy e'tiqod va to'g'ri dunyo qarashni zamon taraqqiyoti bilan barobar qadam tashlaydigan mustaqil fikrli ma'naviy barkamol insonlarni tarbiyalashdan iborat bo'ladi. Shunday ekan, jamiyatimiz a'zolari bo'lmish jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan o'quvchilar mafkuraviy ongini shakllantirishda quyidagilarni vazifa qilib qo'yiladi:

- Milliy istiqlol g'oyalariga ,ona-diyorimizga cheksiz sadoqat, mehru-muhabbat, e'tiqod, vatanimiz ozodligi, ravnaqi uchun fidoiylik ruhida tarbiyalashdek turli yo'llar bilan tarbiyani samaradorligini oshirish maxsus maktablarda mehnat, kasb-hunarga yo'naltirish, hasharchilik an'analarini tiklash va davom ettirish;
- Ota-bobolarimizga xos mehnatsevarlik odobiga sodiq qolish;
- bilim olishga ahamiyat berish;

- Ustozu-ziyolilarga, ma'rufatparvarlarga hurmat-ehtirom ko'rsatish va g'amxo'rlik qilish tuyg'ularini tarbiyalash va rivojlantirish;
- ma'naviy axloqiy va boshqa qadriyatlarni yanada rivojlantirish va ularga to'la rioya qilish ko'nikma va malakalarini shakllantira borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, yoshlar ma'naviyatiga katta e'tibor berilayotgan hozirgi davrda milliy mehnat an'analarini chuqur o'rganish, ulardan aqli zaif o'quvchilarni ta'lim-tarbiya ishida keng foydalanish dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Zero, maxsus mehnat ta'limi maktablarining asosiy vazifalaridan biri bu o'z bitiruvchilarini hayotga ijtimoiy foydali mehnat orqali moslashtirishdir.

X U L O S A

Ma'naviyat sohasida ijobiy yechimini ta'minlash zarur bo'lgan asosiy vazifani ko'rsatar ekan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov quyidagilarni ta'kidlaydi: «Bu sohadagi asosiy vazifamiz – milliy qadriyatlarimizni tiklash, o'zligimizni anglash, milliy g'oya va mafkurani shakllantirish, muqaddas dinimizning ma'naviy hayotimizdagi o'rnini va hurmatini tiklash kabi mustaqillik yillarida boshlagan ezgu ishlarimizni izchillik bilan davom ettirish, ularni yangi bosqichga ko'tarish va ta'sirchanligini kuchaytirishdir. ... Bu sohadagi ishlarimizning pirovard maqsadi – iymon-e'tiqodi butun, irodasi baquvvat, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirishdir. YA'ni, mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalashdan iborat»¹.

Mamlakatimizdagi maxsus maktablarda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalash bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Tabiiyki, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda vatanparvarlik, milliy tarbiyani shakllantirish osonlikcha bo'ladigan ishlardan emas. Chunki bu bolalar bosh miyasidagi jarohat tufayli bilish jarayonlarining turg'un pasayishi – ham jismoniy, ham ruhiy, ham, aqliy, ham axloqiy sohalarida orqada qolishga olib keladi. Aqli zaif bolalarning ruhiy jihatdan barqaror emasligi, irodasi bo'shligi ularni osonlikcha aldash, to'g'ri yo'ldan ozdirish mumkinligi bildiradi. Chunki bu bolalar o'zlari qilayotgan ishning tub mohiyatini, natijasi qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi haqida fikrlay olmaydilar. bu esa o'z navbatida ularni begona insonlar tomonidan boshqarilishiga, bemalol yot g'oyalar ta'siriga tushib qolishlariga olib keladi.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. – Тошкент, Ўзбекистон, 2000. – 19-20-бетлар.

Ularni bunday salbiy oqibatlardan himoya qilish uchun, mafkuraviy ongini shakllantirish uchun ishimizda keltirilganidek, milliy istiqlol g'oyalariga, ona-diyorimizga cheksiz sadoqat, mehru-muhabbat, e'tiqod, vatanimiz ozodligi, ravnaqi uchun fidoiyluk ruhida tarbiyalashdek turli yo'llar bilan tarbiyani samaradorligini oshirish maxsus maktablarda mehnat, kasb-hunarga yo'naltirish, hasharchilik an'analarini tiklash va davom ettirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2010.
2. “Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo'yicha o'quv dasturini tayyorlash va ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 18 yanvardagi Farmoyishi.
3. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1–jild. – T.: “O'zbekiston”, 1996.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2–jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3–jild. –T.: “O'zbekiston”, 1996.
6. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4–jild. –T.: ”O'zbekiston”, 1996.
7. Karimov I.A. YAngicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5–jild. –T.: “O'zbekiston”, 1997.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6–jild. –T.: “O'zbekiston”, 1998.
9. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7–jild. –T.: “O'zbekiston”, 1999.
10. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2000.
11. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2001.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2002.
13. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2003.
14. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch–qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2004.

15. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi. 13–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2005.
16. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. 14–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2006.
17. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2007.
18. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. 16–jild. –T.: “O'zbekiston”, 2008.
19. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. (Prezident Islom Karimovning Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi) –T.: “O'zbekiston”, 2005.
20. Karimov I.A. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. –T.: “O'zbekiston”, 2005.
21. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “Nezavisimaya gazeta” muxbiriga bergan intervyusi). –T.: “O'zbekiston”, 2005.
22. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. –T.: “O'zbekiston”. 2007.
23. Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. (Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Maqkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi). / “Xalq so'zi”. 2007 yil 13 avgust.
24. Karimov I.A. Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir. Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston liberal–

- demokratik partiyasining IV qurultoyidagi ma’ruza. –T.: “O’zbekiston”, 2007.
- 25.Karimov I.A. YUksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.
- 26.Karimov I.A. Ma’naviy yuksalish yo’lida.// –T.: “O’zbekiston”, 1998.
27. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma–bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz (O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 16 yilligiga bag’ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi). // “Xalq so’zi”, 2008 yil 6 dekabr.
- 28.Karimov I.A. Eng asosiy mezon – hayot haqiqatini aks ettirish. –T., “O’zbekiston”, 2009.
- 29.Karimov I.A. Adabiyotga e’tibor – ma’naviyatga, kelajakka e’tibor. // “O’zbekiston adabiyoti va san’ati”. 2009 yil 3 iyul.
- 30.Karimov I.A. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: “O’zbekiston”, 1997.
- 31.Karimov I.A. Alloh – qalbizda, yuragimizda. –T.: “O’zbekiston”, 1999.
- 32.Karimov I.A. Hushyorlikka da’vat. –T.: “O’zbekiston”, 1999.
- 33.Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. –T.: G’.G’ulom Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
- 34.Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyotining poydevori./ –T.: “O’zbekiston”,1997.
- 35.Boboyev H., G’ofurov Z. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. –T.: “YAngi asr avlodi”, 2001.
- 36.Jo’rayev N. Mafkuraviy immunitet. –T.: “Ma’naviyat”, 2001.
- 37.Ma’naviy yuksalish yo’lida. –T.: “Ma’naviyat”, 2008.
- 38.Milliy g’oya – bizning g’oya. –T.: “DITAF”, 2001.
- 39.Milliy istiqlol g’oyasi. O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim bakalavriat bosqichi uchun darslik (mas’ul muharrir I.Ergashev), –T.: “Akademiya”, 2005 yil.

40. Milliy g'oya: targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. –T.: “Akademiya”, 2007.
41. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. –T.: “Ma'naviyat”, 2000.
42. Milliy istiqlool g'oyasi: ko'rgazmali vositalar. T.: Ma'naviyat, 2001. 16-b.
43. Saifnazarov I. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Uslubiy-ko'rgazmali qo'llanma. T.: TDIU, 2001. 28-b.
44. Nazarov Q., Ochildiyev A. Milliy istiqlool g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (qichqacha izohli tajribaviy lug'at). T.: «YAngi asr avlodi», 2002. 192-bet.
45. Ergashev I. va boshqalar. Milliy istiqlool g'oyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. “Akademiya”, T.: 2005.
46. Po'latova P. M. Maxsus pedagogika – T.: 2005.
47. Sagatov.A.I., Pulatova.P.M., Mamedov.K.X. Oligofrenopedagogika asoslari. T.: O'qituvchi, 1999 y.
48. Raxmanova V.S. Maxsus pedagogika. T.: «G'afur G'ulom», 2004 y.
49. www.tdpu.uz
50. www.pedagog.Uz
51. www.Ziyonet.Uz
52. www.edu.uz
53. tdpu-INTRANET.Ped